

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI

MUMTOZ FILOLOGIYA KAFEDRASI

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

### **“MAJOLIS UN-NAFOIS”DAGI MAJLISLARNING BADIY TALQINI**

**Bajardi:** Sharq mumtoz filologiyasi  
ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi

**Karimova Gulnoza**

**Ilmiy rahbar:** Mumtoz filologiya  
kafedrasi professori, f.f.n. **Suyima G'aniyeva**

Ushbu bitiruv malakaviy ish “Majolis un-nafois”dagi majlislarning badiiy talqinini ochib berishga qaratilgan. Unda Alisher Navoiyning tazkirasidagi majlislarda qo'llanilgan majlislarning badiiy talqini tahlil ostiga olingan.

Toshkent – 2013

## **Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi**

Sharq filologiyasi va falsafa fakulteti  
dekani f.f.n.,dots. **Q.SH.Omonov**

\_\_\_\_\_  
“    ”    \_\_\_\_\_ 2013 yil

Mumtoz filologiya kafedrası mudiri  
f.f.d.,prof.**Q.P.Sodiqov**

\_\_\_\_\_  
“    ”    \_\_\_\_\_ 2013 yil

# **MUNDARIJA**

**KIRISH .....3-6**

## **I BOB. TAZKIRANAVISLIK AN'ANALARI**

**1.1. “Majolis un-nafois” tazkirasining yaratilishi, yangi an'anaga asos solingani xususida .....7-12,13**

**1.2. Asarning tarkibiy tuzilishi .....13-38**

## **II BOB. TAZKIRADAGI MAJLISLARNING BADIY TALQINI**

**2.1. Majlislarda keltirilgan adabiy tur va janrlar, she'riy parchalardagi badiiy-tasviriy vositalar .....39-52**

**2.2. Tazkirada Navoiyning badiiy so'z san'ati hamda adabiy-tanqidiy qarashlari .....52-66**

**XULOSA .....67-71**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....72-75**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** “Bizning o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadimiz yurtimizda yashab ijod etgan ulug‘ zotlarning hayot yo‘li va qoldirgan merosini to‘liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma‘rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o‘zida uyg‘unlashtirgan xalqimizning ma‘naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o‘rganish, uning ma‘no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda ziyolilarimiz butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo‘lishi shart, deb hisoblayman. Nega deganda, o‘zimiz – bugun shu yurtda yashayotgan vatanparvar insonlar bu vazifani o‘z zimmamizga olmasak, chetdan kelib hech kim bu ishni qilib bermaydi<sup>1</sup>.”

Darhaqiqat, yurtboshimiz aytganlaridek ona vatanimizda yashab ijod etgan buyuk bobokalonlarimizning bebaho merosini o‘zimiz o‘rganishimiz, kelajak avlodga munosib tarzda yetkazib bermog‘imiz lozim.

O‘zbek xalqi ma‘naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta‘sir ko‘rsatgan zotlardan biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo‘tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliqi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo fahrlanib so‘z yuritamiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, shonu sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir. Ta‘bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e‘tiqod bilan qaramasa. Zero Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov ul zotni shunday ulug‘laydilar: “Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir<sup>2</sup>”. Inson qalbining quvonchu

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. 2008. 21- b.

<sup>2</sup> O‘sha asar. 21- b.

qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz. Lekin ayni paytda , biz bir haqiqatni ham yaxshi anglaymizki, faqat o'tmishga, ajdodlar merosiga mahliyo bo'lib yurishning o'zi bilan uzoqqa borib bo'lmaydi.

Shuning uchun ham biz yoshlar o'tmishdagi ota-bobolarimiz ijodiy merosini asrab-avaylash, ularni bizdan keyingi avlodlarga munosib tarzda yetib borishini ta'minlash maqsadida ushbu bitiruv malakaviy ishimizni bobomiz Mir Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asariga bag'ishladik. Zero, biz o'rganayotgan Navoiy asarlari o'lmas, bebaho qiymatga egadir.

Shu o'rinda bitiruv malakaviy ishimiz Alisher Navoiyning o'zbek tazkirachiligiga asos solgan, unga tamal toshini qo'ygan "Majolis un-nafois" asari xususida bo'ladi. O'rganayotgan mavzuimiz tazkiradagi majlislarning badiiy talqini bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda biz asosan tazkirada keltirilgan majlislarning shakli va mazmuni, badiiyatiga to'xtalib o'tamiz. Mavzuimizning dolzarbligi shundaki, asarning o'zi shu kungacha ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan, ammo e'tiborli jihatlar asar badiiyatining sanoqli olimlar tomonidan o'rganilganligidir. Shu jihatlarni hisobga olgan holda biz tazkirani to'liq, ya'ni ham tarkibiy tuzilish va eng asosiysi shakl va mazmun birligi, badiiy jihatdan ham o'rganishga qaror qildik.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** "Majolis un-nafois" tazkirasi o'zbek tazkirachiligida yangi an'anaga asos solgani uchun ham uni yaratilib, kitobxonlarga taqdim etilgan vaqtdanoq o'rganilib, ko'plab tillarga tarjima qilingan. Bu haqda bitiruv malakaviy ishimiz boblarida to'xtalib o'tganmiz. Mavzuimizning o'rganilishiga keladigan bo'lsak, u asosan rus olimlari A.K. Borovkov, E.E. Bertels, N.A. Boldirevlar tomonidan qisman bo'lsada o'rganilib, ushbu asardan o'zlarining

tadqiqotlarida keng foydalanganlar. Yana o'zbek navoiyshunoslaridan Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek hamda Porso Shamsiyevlar tazkiraning matnini tayyorlab, ommaga taqdim etishgan. Eng mukammal o'rgangan navoiyshunos olim professor Suyima G'aniyeva hisoblanadi. Ular Leningrad universitetining aspiranturasida tahsil olayotganlarida "Majolis un-nafois"ning ilmiy-tanqidiy matnini eng qadimiy va nodir qo'lyozmalaridan foydalanib, uni har tomonlama tadqiq etib, tayyorlaganlar. Tazkira majlislarini ham to'liq o'rganib, uni badiiy jihatdan yuksak asar ekanligini isbotlab berganlar va hozirda ham ushbu asarni tadqiq etishda davom etmoqdalar.

**Bitiruv malakaviy ishining manbalari.** Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda bevosita professor, navoiyshunos olim Suyima G'aniyevaning "Majolis un-nafois" asariga 1961-66 yillarda tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matni asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Qo'shimcha manbalardan Suyima G'aniyevaning "Kitob dunyosi" gazetasida chop etilgan maqolalari, "O'zbek adabiyoti tarixi" (5 tomlik) kitobi, N.M. Mallayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" (2-tomi) kitobi, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning maqolalari, hozirga qadar nashr etilgan 20, 15, 10 tomlik Alisher Navoiy asarlarining mukammal to'plamlaridan hamda internet ma'lumotlaridan foydalandik.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi - "Majolis un-nafois" tazkirasini tarkibiy tuzilishi jihatidan mukammal o'rganish va undagi majlislarning badiiy talqinini keng yoritib berishdan iborat. Shu maqsadni amalga oshirishda biz o'z oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

- "Majolis un-nafois" tazkirasining tazkirachilik an'analaridagi o'rnini ko'rsatib berish;
- "Majolis un-nafois" dan avval yaratilgan tazkiralar, ularning farqli jihatlari haqida qisqacha bo'lsada ma'lumot berish;
- Tazkiraning o'zbek tazkirachiligiga asos bo'lgani, uning tarkibiy tuzilishini mukammal tarzda ko'rsatib berish;
- Tazkirada nafaqat erkak balki ayol shoiralar ijodi haqidagi ma'lumotlarni keltirish;

- “Majolis un-nafois” majlislarining shakli va mazmuni, badiiyatini mukammal o’rganish;

- Asar bo’yicha olib borilgan izlanishlardan asosiy xulosalarni keltirish.

**Ishning yangiligi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda, asosan “Majolis un-nafois” tazkirasining o’rganilmagan jihatlarini, ya’ni ko’proq majlislarning badiiy talqinini yoritib berishga harakat qildik. Yangilik sifatida 3ta ayol shoira hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlarni, badiiy san’atlarga oid misollarni hamda Navoiyning badiiy so’z san’ati namoyandalarini uch guruhga bo’lgani haqidagi ma’lumotlarni keltirib o’tdik.

**Ishning tuzilishi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz mundarija, kirish, 2 ta bob, (o’z o’rnida ushbu boblar mavzuni to’liqroq ochib berish maqsadida 2tadan fasllarga bo’lingan), xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

## I BOB. TAZKIRANAVISLIK AN'ANALARI

### 1.1. “Majolis un-nafois” tazkirasining yaratilishi, yangi an'anaga asos solingani xususida

She'riyat mulkingning sultoni, benazir iste'dod sohibi, o'zbek mumtoz adabiyotiga o'zining ijodi bilan munosib hissa qo'shgan Mir Alisher Navoiy hazratlarining biz yosh avlodga meros qilib qoldirgan oltinga teng asarlarini o'qib, o'rganmog'imiz har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir. Uning nomi va merosi Gomer va Dante, Rudakiy va Firdavsiy, Nizomiy va Shota Rustaveli, Sa'diy va Jomiy, Shekspir va Balzak, Pushkin va Tolstoy, Rabindranat Tagor va Lu Sin kabi ulkan so'z san'atkorlarining nomi va merosidek o'lmasdir<sup>3</sup>.

Navoiy butun faoliyati va ijodini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi.

Shoir: “Umidim uldurki va hayoling'a andoq kelurki, so'zim martabasi avjdan quyi enmagay va bu yozgan asarlarimning tantanasi a'lo darajadan o'zga yerni yoqtirmag'ay”, degan edi<sup>4</sup>.

Ma'lumki, Alisher Navoiy butun mamlakat bo'ylab madaniy hayotni kuzatib borgan, adabiyot va fanni, san'at va umuman ijodiy ishni rivojlantirishga qo'ldan kelgancha harakat qilgan. Xuddi shu ma'noda uning “Majolis un-nafois” nomli tazkisasi alohida ahamiyatga molikdir. Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasini birinchi marta 1491 yilda tuzdi. U, “Majolis un-nafois”ning ilmiy-tanqidiy matnini tuzgan Suyima G'aniyeva ta'kidlaganidek, “Majolis un-nafois”ga juda ko'p yangilik va qo'shimchalar kiritib, 1497-1498 yillarda uning ikkinchi, qayta ishlangan nusxasini yaratdi. Ayrim biografik noaniqliklarni bartaraf qildi. “Majolis un-nafois” tazkirachilikda yangi va juda qimmatli asar sifatida vujudga keldi hamda o'zbek tazkirachiligiga asos bo'ldi.

---

<sup>3</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент. 1976. 349- б.

<sup>4</sup> Кўрсатилган китоб. 349- б.



Alisher Navoiy bu asarni yozishdan ko'zlagan maqsadini asar muqaddimasida quyidagicha bayon etadi: "...bu xujasta zamon va farxunda davron shuaro va xushta'blarikim, Sulton Sohibqiron (ya'ni Husayn Boyqaro – S.G'.) yumni davlatidin va natijai tarbiyatidin she'rning ko'prak uslubida, bataxis g'azal tavrida barchadin dilosoroq va nishot afzoroqdur, tarkibi salosat va latofatin burung'ilarga yetkuradurlar va ma'ni nazokat va g'arobatin ulcha sharti bor, bajo kelturadurlar, otlari ul jamoat zumrasida (ya'ni avval o'tgan shoirlar qatorida – S.G'.) bo'lmoqdin mahrum va so'zlari ul tartib va qoidada noma'lum uchun shikasta xotirg'a va sinuq kungulg'a andoq keldikim, bir necha varaq bitilgay va bu asr shuaro si bila bu davr zurofasi otin anda sabt etilgay, to bu niyozmandlar ham burung'i shuaro akobiri zaylida mazkur bo'lg'aylar va bu payravlar ham ul rahbarlar xaylig'a qo'shulg'aylar<sup>5</sup>". Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning boy va ko'pyoqlama ijodiyotida "Majolis un-nafois" ("Nafis ta'blilar majlisi") alohida ahamiyatga egadir. Bu asar o'z tipi e'tiborila Sharqda namunalari oz bo'lmagan "Tazkirat ush-shuarolar" jumlasiga kiradi. Bu kabi tazkiralarda, odatda, ma'lum davrda yashagan shoirlarning qisqacha tarjimai hollari yoki hayotlarida muhim sanalgan ba'zi faktlar va voqealar, ham ularning ijodiyotlaridan bir-ikki bayt, bir-ikki qit'a namuna tariqasida ko'rsatilib o'tiladi. Hozirgi ma'noda adabiyot tarixi va adabiy tanqidchilik mavjud bo'lmagan zamonlarda, tazkira avtorlari bu kamchilikni, juda ibtidoiy – sodda formada bo'lsa ham, to'ldirishga tirishganlar. Arab va eron tillarida tazkiralari Navoiyga qadar mavjud bo'lib kelgan bo'lsa ham, lekin Navoiyning "Majolis un-nafois"igacha o'zbek tilida shu tipdagi biron asarning yozilganini bilmaymiz<sup>6</sup>.

Shunday qilib Navoiy o'z davri adabiyot ahllarining nomlari va ijod namunalarini avlodlarga yozib qoldirishni, ularning xotirasini abadiylashtirishni maqsad qilib oladi va o'z ona tilida birinchi tazkirani yaratadi. Navoiygacha yozilgan tazkiralarning eng qadimiysi, umuman fors tilidagi ilk tazkira – Muhammad

---

<sup>5</sup> Аlisher Навоий. Асарлар. 15 томлик. 13 том. Мажолис ун-нафоис. 6- б. Кейинги мисоллар шу асардан берилади.

<sup>6</sup> Ойбек. Навоийнинг "Мажолис ун-нафоис" асари ҳақида. Т. 13. Адабий танқидий мақолалар. Тошкент. 1979.

Avfiyning 1222 yilda tuzilgan “Lubob ul-albob”idir. Navoiy “Majolis un-nafois”da: *“Bas nazm ilmi qoyillari va she’r fani komillarikim, daqoyiq durri pokining bahri ummoni va maoniy la’li otashnokining koni bo’la olg’anlar, bas sharif xayl va aziz qavm bo’lg’aylar, bu jihatdindurkim, alarning nomin otlari va kiromiy sifotlari zamon sahoyifidin va davron safoyihidin mahv bo’lmasun deb tasnif ahli a’liflarida va ta’lif xayli tasniflarida fusuli orosta va abvobi piyrosta qilibdurlar va o’z kitobatlarig’a bu jamoat zikridin zeb beribdurlar. Ul jumladin biri hazrati mahdumi, shayx ul-islomi mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy (madda zilli va irshodahu)dur. Mundoq buzurgvor oliy miqdor “Bahoriston” otlig’ kitobidakim, sekkiz ravza ochibdur va sekkiz ravzai jannat alar xijolatindin el ko’zidin ixtifo pardasig’a qochibdur va oni Sultoni Sohibqiron otizevari bila muzayyal va alqobi gavhari bila mukallal qilibdur, bir ravzasini bu mavzun navoliq balo bilva matbu’ sadolig’ anodil gul bongidin rashki nigorxonai Chin va g’ayrati firdavsi barin qilibdur va Amir Davlatshohkim, Xuroson mulkining asl mirzodalari orasida fazl va donish zevari bila bahramand, faqr va qanoat toji bila sarbalanddur, ham Sulton Sohibqiron otig’a “Tazkirat ush-shuaro” otlig’ kitob bitibdur, voqean base zahmat tortibdur va bu toifani yaxshi jam’ qilibdur. Bu bobda yana dag’i rasoil va kutub bor”.*

Davlatshoh Samarqandiy 1487 yilda “Tazkirai Davlatshohiy” deb ham yuritiladigan “Tazkirat ush-shuaro” asarini yaratdi va asar Navoiy tavsiyasi bilan yaratilgan bo’lib, Navoiyning ijodi va arboblik faoliyati haqida maxsus bob bor.

“Tazkirat ush-shuaro” X-XV asrlarda yashab ijod etgan qalam ahllariga oid faktik ma’lumotlarni, shuningdek, ana shu Xuroson, Movarounnahr, Eron, Ozarbayjon, Hindiston va boshqa viloyatlarda fors-tojik she’riyati rivojiga hissa qo’shgan 150 dan ziyod shoirlar haqidagi rivoyat va hikoyatlarni o’z ichiga oladi.

Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” nomli axloqiy-badiiy asarini 1487 yilda Sa’diy Sheroziyning mashhur “Guliston” asari payravligida yaratadi. Jomiy o’z o’g’li Ziyovuddin Yusufga darslik tarzida yaratgan “Bahoriston” muqaddima va 8 bob (ravza)dan iborat: 1) Oriflar sarguzashti; 2) Ulug’lar hikmatlari; 3) Adolatli shohlar haqida; 4) Sahiylik targ’ibi; 5) Ishqiy hikoyatlar; 6) Hazil mutoyibalar; 7) She’r va

shoirilar; 8) Tamsillar. “Bahoriston”ning 7- bobi (ravzasi) tazkira bo’lib, unda Rudakiydan Hasan Dehlaviyga qadar 30 dan ortiq shoirlar haqida ma’lumot va ular ijodidan namunalari keltiriladi. Tazkirada Navoiy sha’niga aytilgan iliq va samimiy so’zlar g’oyat ahamiyatlidir.

Bu tazkiralari adabiyot tarixini o’rganishga ko’p yordam berdi. Shunga qaramay, “Majolis un-nafois” kabi yangi bir tazkiraning vujudga kelishiga katta ehtiyoj va zaruriyat bor edi. O’zbek adabiy tilining ravnaq topishi bu tilda faqat badiiy asarlar yaratishnigina emas, balki ilmiy asarlar, jumladan adabiyotshunoslikka doir asarlar yaratishni ham taqazo qilardi. Ana shu ehtiyojlar zaminida Alisher Navoiyning ilmiy filologik merosi “Majolis un-nafois” tazkisasi vujudga keldi. “Majolis un-nafois”gacha bo’lgan tazkiralari fors-tojik tilida yaratilib, shu adabiyot namoyandalariga bag’ishlanardi. O’zbek mumtoz adabiyotining tobora taraqqiy etib borishi, XV asrda Amiriy, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiy va nihoyat Lutfiy kabi ko’p tazkiralarda zikr etilishini va ularga munosib o’rin berilishini talab qilardi. Bu talabni Navoiy “Majolis un-nafois”da amalga oshirdi. U o’z asarida salafi Muhammad Avfiy va zamondoshlari Davlatshoh Samarqandiy va Abdurahmon Jomiylardan o’zgacha yo’l tutib, tazkisasi ma’lumotlariga ulkan so’z san’atkori, buyuk adabiyot tanqidchisi sifatida yondashadi. Navoiy “Majolis un-nafois” tazkisasi orqali o’z davri adabiyotiga o’zining ilg’or maqsadlari asosida muayyan yo’nalish berishga intiladi. Navoiy tazkirasining boshqa tazkiralardan yana bir farqi shuki, unda davrning madaniyati keng aks ettirilgan. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkisasi XV asr o’zbek va fors-tojik adabiyoti tarixini o’rganish bilan bir qatorda mazkur davr ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayoti haqida tasavvurga ega bo’lishda alohida ahamiyatga ega. O’sha davr an’anasiga ko’ra, Navoiy “Majolis un-nafois”ni “tabarruk qilmoq uchun” shayhlardan “Xoja Qosim Anvor zikri bilan” boshlaganini ta’kidlaydi. Qosim Anvordan keyin uning shogirdlari, bulardan so’ng bir qator movaraunnahrlik va xurosonlik shoirlari zikr etiladi<sup>7</sup>.

---

<sup>7</sup> Маллаев Н. Кўрсатилган китоб. 537- б.

Tazkira ma'lumotlarini joylashtirish, shoirlar burchini belgilash, adabiyotning yuksak badiiyligi va g'oyaviyligi uchun kurashishda Navoiy g'oyat ilg'or o'rinda turadi. Navoiy tazkirasining eng muhim xususiyati – uning asos e'tibori bilan shoirning o'z zamondoshlariga bag'ishlanganligidir. Mana shu jihatlari bilan “Majolis un-nafois” yozilganidan oz fursat o'tmay Sharq mamlakatlarining shoirlari, tarixchilari, olimlari diqqatini ko'p martalab o'ziga jalb eta boshlagan edi. XVI asrning o'zida “Majolis un-nafois”ning fors tiliga 3 marta tarjima qilinganligi Movarounnahr, Eron va Turkiyada tazkiraga zo'r qiziqish bilan qaralganidan dalolat beradi.

Birinchi tarjima 1521-22 yillarda Hirotida Tahmasp shohning saroy shoiri Fahriy bin Sulton Muhammad Amiriy tomonidan qilingan. Fahriy o'z tarjimasini safaviylar sulolasining asoschisi Shoh Ismoilga, uning ikkinchi o'gli Som Mirzo, Amirul umaro Durmishxon Shomlu va vazir Karimiddin Habibulloh Sovajiyga bag'ishlaydi. Ohirgi bobini esa Ismoil shohning vaziri – Shoh Husaynga bag'ishlaydi. Fahriy o'z tarjimasini “Latoyifnoma” deb atagan va unga 188 shoir haqida ma'lumot beruvchi to'qqizinchi majlisni ilova qilgan. Bu majlis o'z navbatida yana 9 qismga bo'linib, ulardan birinchisi Navoiyga bag'ishlanadi. U Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan sakkizinchi majlisni qisqartirib tashlab, uning she'rlaridan keltirilgan 164 bayt o'rniga 2 baytni namuna sifatida beradi.

Ikkinchi tarjima Istanbulda 1522-23 yillarda tugallangan. Mutarjimi Muhammad Qazviniiy turk sultoni Salim I va uning vorisi Sulaymon I ning saroy tabibi edi. U o'z tarjimasini Sulton ibn Salimga bag'ishlangan edi. Qazviniiy asarning nomini shundayligicha qoldiradi, “majlis”larni “behisht” deb ataydi. U ham sakkizinchi majlisni nihoyatda qisqartirib, uni yettinchi majlis oxiriga qo'shib yuboradi va o'zi tarafidan maxsus “behisht” ochadi. Bu yangi bob ikki qismga – ikki ravzaga bo'linadi. Ulardan birinchisida klassik shoirlar, ikkinchisida esa turk sultoni – Sulton Salim she'riyati va uning 150 ta saroy shoiri haqida ma'lumot beradi. Uchinchi tarjima tahminan 1598 yilda Shoh Ali Abdulali tomonidan Nishopurda

Dinmuhammad hukmronlik qilgan davrlarida bajarilgan. Bu tarjimaning tugallanmagan yagona nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi.

Fahriy va Qazviniiy tarjimalarining qimmatini shundan iboratki, ular asarni tarjima qila turib, shu shoir yohud ijodkor to'g'risida o'zlari bilgan yoki eshitgan ma'lumot, rivoyat hamda hikoyatlarni keltirib o'tadilar.

“Majolis un-nafois”ning Toshkentda hijriy 1336 yili (milodiy 1917-1918 yillarda) Muhammad Salim tomonidan “Hujjatul komilin”, “Bog'i Eram”, “Fazlut tuzkor” nomli asarlar bilan birgalikda bir muqovada toshbosma shaklida nashr etilgani haqida ham ma'lumotlar bor<sup>8</sup>. Birinchi va ikkinchi tarjimalar 1945 yilda Tehronda professor Ali Asqar Hikmat tomonidan bir kitobda nashr etilgan. Asar bir necha marotaba rus tiliga ham tarjima qilingan<sup>9</sup>.

“Majolis un-nafois” XV asr adabiy hayotining muhim bir hujjatidir. Bu asar o'z davridagi adabiy hayotni ma'lum darajada yoritib berish bilan birga, so'z san'atining taraqqiyotiga ham xizmat qildi. Adabiyot ahllarini va kitobxonlarni ko'p yozuvchilarning ijodiy faoliyati, ularning yutuqlari va kamchiliklari bilan tanishtirdi. U keyingi asrlarga XV asr adabiyoti va adabiy-tanqidiy qarashlarining bir yodgorligi bo'lib qoldi va tazkirachilik taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi. XVI asrning ohiri va XVII asrning boshida o'tgan ozarbayjonlik adabiyotshunos Sodiqbek kitobdor “Majolis un-nafois”dan ilhomlanib va foydalanib Navoiy ona tilida – o'zbek tilida “Tazkirai majmaul-havos”ni tuzdi. O'zbek tazkirachiligining to'ng'ich asari bo'lgan “Majolis un-nafois” o'zbek tilida bir qator tazkira yoki majmua va bayozlarning vujudga kelishiga yo'l ochdi va bir namuna bo'lib xizmat qildi. Keyingi asrlarda o'zbek va tojik tillarida bir qancha yangi tazkiralar vujudga keldi. Malehoning “Muzakkir ul-ashob” (“Suhbatdoshlar zikri”), Hasan Nisoriyning “Muzakkir ul-ahbob” (“Do'stlar zikri”), Vozehning “Tuhfat ul-ahbob” (“Do'stlarning tuhfasini”), Fazliyning “Majmuai shoiron” (“Shoirlar to'plami”), Som Mirzoning “Tuhfayi

---

<sup>8</sup> *Хайитметов А.* “Мажолис ун-нафоис”нинг ноёб бир нашри ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. Фан. 2004. №2. 45- б.

<sup>9</sup> *Боровков А.К.* “Маджалис ан-нафаис” (собрание редких. Отделение литературы и языка. 1927. Том 6.)

Somiy”, Tabibiyning “Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy” asarlari va boshqalar shular jumlasidandir. Tazkirani ilk marotaba fors tiliga tarjima qilgan Fahriy Hirotiy shu asarga o’xshatib, 7 bobdan iborat she’riyat bilan shug’ullangan 80 nafar podshoh, sulton va amirlar haqida ma’lumot beruvchi “Ravzat us-salotin” nomli tazkira yozgan va bunda “Majolis”ning oltinchi, yettinchi va sakkizinchi majlislari ma’lumotlaridan keng foydalangan. Shuningdek XVIII asr o’rtalarida tuzilgan muallifi noma’lum “Tazkirai shoiron”, Xalil taxallusli Ali Ibrohim Xalilxonning 3278 shoir haqida hikoya qiluvchi “Suhufi Ibrohim”, Sayid Muhammad Siddiq Hasanxon Bahodirning “Shami Anjuman”, Rizoqulixon Hidoyatning “Riyozi ul-orifin”, noma’lum tazkiranavisning “Xarobat” nomli ikki jildli antologiyalarida qayd qilinishicha Navoiyning “Majolis un-nafois”idan asosiy manba sifatida foydalanilgan. Ushbu tazkiralardan ma’lum bo’ladiki Navoiy o’z asari bilan asrlar davomida o’zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga zo’r ijobiy ta’sir ko’rsatdi.

## 1.2. Asarning tarkibiy tuzilishi

Mohir san’atkor, xalqparvar va madaniyatparvar arbob, mutafakkir olim Alisher Navoiy o’zining “Majolis un-nafois” asarining kompozitsion qurilishi haqida: “Chun bu maqsudg’a yetildi, oni sekkiz qism etildi va har qismi nafis bir majlisg’a mavsum bo’ldi va majmuig’a “Majolis un-nafois” ot qo’yuldi”, deb o’z asarining ibtidosini boshlagan. Tazkira sakkiz bo’limdan iborat bo’lib, Navoiy ularni “majlis”lar deb ataydi. Bularda Navoiy 459 ta shoir, yozuvchi va olim haqida ma’lumot beradi.

“**Avvalgi majlis.** Jamoati mahodim va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonining oxirida erdim va mulozamatlari sharafig’a musharraf bo’lmadim”. Birinchi majlisda Navoiy hazratlari o’zidan oldin yashab ijod etgan, yohud mulozamatlariga musharraf bo’lmagan shoirlar haqida yozadi. Quyida ularning ba’zilariga to’xtalib o’tamiz. Bu majlisda 46 ta shoir tilga olinadi. Navoiy “Majolis un-nafois”ning birinchi majlisini **Qosim Anvor** nomi bilan boshlaydi. Uning Qosimiy va Qosim taxalluslarida she’rlar yozgani, davrning mashhur tasavvuf shayhlaridan bo’lgani aytiladi. Qosim Anvor 1356 yil Tabrizning Sarob degan kentida tug’ilgan,

1433 yil Jom viloyatining Xarjerd degan shaharchasida vafot etgan Qosim Anvorning:

**Rindemu oshiqemu jahon so'zu joma chok,**

**Bo davlati g'ami tu zi fikri jahon chi bok. (MN.9)**

(Ya'ni, rindmiz (aysh-ishratdan o'zini tiymagan), lekin g'oyat ziyrak odam, oshiqmiz, jahonni o'rtovchi yoqa vayronmiz, sening g'aming turganda jahon fikridan ne foyda) baytini yod olgan.

Manbalarda Qosim Anvorning "Mezoni nufuz" ("Ta'sir o'lchovi") asari turkiyda yozilgan, shu tilda bitilgan tuyuqlari ham bor, deyiladi<sup>10</sup>.

Shundan so'ng Hazrat Navoiy *Xoja Abdulvafo Xorazmiyga* quyidagicha ta'rif beradi: "**X o j a A b d u l v a f o y i X o r a z m i y** (quddisa sirruhu) kibori avliyodindur. Xorazm xalqi g'oyat malakiy sifotlig'idin Xojani "er farishtasi" derlar erdi va Xoja ulumi zohiriy va botiniyni takmil qilib erdi. Va tasavvufda yaxshi musannafoti bor va mashhurdurkim, ulumi g'ariba ham bilur erdi, ammo andin zohir, bo'lmas erdi, balki g'oyati tavajjuh va istig'roqdin parvo ham qilmas erdi. Advor va musiqiy ilmida dag'i mahorati bor erdikim, risolasidan ma'lum bo'lur. Xoja avsofini har kishi bitir bo'lsa, alohida bir kitob bitmak kerak, ma'lum emaskim, bir kitobda ham siqq'aymu yo yo'q. Bir ruboiysi bila ixtisor qiloli.

***Bad kardamu e'tizor badtar zi gunoh,***

***Zero ki dar in hast se da'vii taboh,***

***Da'vii vujudu da'vii quvvatu havl,***

***Lohavla valo quvvata illo billoh. (MN.11)***

Xoja ham Xorazmda olamdin o'tti va muborak marqadi ham Xorazmdadur<sup>11</sup>.

"Majolis"dagi Abdulvafo Xorazmiyning zohiriy ilmlarda shogirdi, botiniy ilmlarda muridi, shoir Mavlono Husayn Xorazmiy haqidagi ma'lumotda uning Jaloliddin Rumiy "Masnaviy"siga va "Qasidai Burda"ga xorazmiycha turkiy til bilan sharh yozgani aytiladi. Husayn Xorazmiyning "Maqsadi aqso" (Eng so'ngi maqsad)

---

<sup>10</sup> G'aniyeva S. Oshiqmiz jahonni o'rtovchi. "Kitob dunyosi" gazetasi. 2012. 5- oktabr.

<sup>11</sup> *Фаниева С. Мажолис ун-нафоис. Тошкент. 1966.*

asari Mahmud Zamahshariyning arab maqollari haqidagi asari tarjimasi bo'lib, ko'p olimlar, jumladan Xondamir bu tarjima asarni ta'rif qilgan.

Yana Alisher Navoiy avvalgi majlisda Mavlono Kotibiy haqida quyidagilarni aytib o'tgan: “**M a v l o n o K o t i b i y** – o‘z zamonining benaziri erdi. Har nav‘ she‘rg‘aki, mayl ko‘rguzdi, anga maoniyi g‘ariba ko‘p yuzlandi, bataxisis, qasoidda balki ixtirolar ham qildi va ko‘p yaxshi keldi. Va masnaviylari ham misli “Tajnisot” va “Zul-bahrayn” va “Zul-qofiyatayn” va “Husn va ishq” va “Nosir va Mansur” va “Bahrom va Gulandom” bor. Ammo g‘azaliyot va qasoid devoni mashhurroq va yaxshiroq voqe‘ bo‘lubdur. Oxiri umrida “Xamsa”g‘a tatabbu‘ bunyod qildi va anda da‘volar zohir qilibdur. Go‘yo bu sababdin itmomig‘a tavfiq topmadi. Bu faqirning xayolig‘a andoq kelurkim, Mavlono Kotibiyda she‘r saliqasi oncha bor ekandurkim, bizning Sulton Sohibqirondek suxandon podshoh anga murabbiy bo‘lsa erdi va umri dag‘i biror nima vafo qilsa erdi ko‘p elning ko‘nglin she‘r aytmoqdin sovutqay erdi. Ammo tole‘i za‘fidin bu mazkur bo‘lg‘an ikki davlatqa musharraf bo‘lmadi. Har taqdir bila insof uldurkim, aning asridin bu kungacha anga g‘olibi mahz she‘rning barcha uslubida kishi yo‘qtur. Aning yaxshi so‘zi ko‘pdur. Ammo g‘azaliyotida bu matlai yaxshi voqe‘ bo‘lubdurkim:

***Zi chashmu dil badani xokiyam dar otashu ob ast,***

***Ba chashm binu ba dil rahm kunki, kor xarob ast***” (MN.13)

(Ko‘z va dil tufayli tuproq badanim o‘t va suv ichidadir. Ko‘z bilan ko‘rgil va dil bilan rahm qilgil, ishim xarobdir.)

Kotibiy qalamiga 140 asar mansub deyiladi. Manbalarda shoirning “Si noma” - “Muhib va Mahbub” nomi bilan mashhur va “Kitobi dilraboyi” nomli irfoniy masalalarga bag‘ishlangan masnaviylari borligi e’tirof etilgan.

***Mavlono Yahyo Sebak*** – go‘zal fazilatlar egasi, badiiy san’atlar va aruzda mohir bo‘lgan. “Shabistoni hayol”, “Ta‘biri xob” nomli asarlari bor. Navoiy aruz fanida uning shogirdiman, deb yozadi. Uning “Dahnoma” masnaviysi oshiqlar dasturi hisoblangan, deyiladi. ***Xoji Abulhasan*** turkdir, deydi Navoiy. Tolibi ilm, she‘r yozish bilan mashg‘ul. Bayti:



***Kelibtur ul gulu bir hafta turub boradur,***

***Bu o't ko'ngulga tushub jonni kuydurub boradur.*** (MN.26)

***Naimiy*** – turkiy nazmlarga moyil edi. Matla'i:

***To adamdin bo'ldi paydo munchkaim husnu jamol,***

***Sen parivashdek yaratmabdur bashardin zuljalol.*** (MN.26)

***Amiriy*** turk erdi, turkcha yaxshi she'rlar yozgan, "Dahnoma" asari ishqiy mavzudadir. "Devon"i va "Bang va chog'ir" munozarasi bor. Navoiy shoir "Dahnoma"sidan quyidagi baytni keltiradi:

***Ne yemakdin, ne uyqudin solib so'z,***

***Yemakdin to'yub, uyqudin yumub ko'z.*** (MN.22)

***Ashraf*** – darveshsifat tabiatli bo'lgan. "Xamsa" yaratishga kirishgan va tugatishga muvaffaq bo'lgan shoir: "Minhoj ul-abror", "Riyoz ul-oshiqayni", "Shirin va Xusrav", "Layli va Majnun", "Haft avrang" va "Zafarnoma" ko'rinadiki, shoir Nizomiy Ganjaviy izidan borib, oxirgi dostonini 2 qismdan iborat qilgan. "Majolis un-nafois"ning birinchi majlisidagi she'rlar orasida samarqandlik Bisotiy, Sayyid Ali Hoshimiy, Muhammad Olim Badahshiylar, buxorolik Hayoliy haqida ma'lumotlar bor. Bobo Savdoiy, Muhammad Jomiy, Shohiy, Masihiy va boshqa shoirlar haqidagi ma'lumotlar ham g'oyat maroqlidir.

Mavlono Alisher Navoiy avvalgi majlisga quyidagicha yakun yasaydi: "Bu valoyat osor guruh va bu fasohat shior anbuhlarning ruhlarinikim, xaloyiq ruhi alarning jonparvar nafaslaridin tozadur va ulus osoyishi alarning ruhbaxsh kalomlaridin beandoza. Haq subhonahu va taolo sahobi inoyatidin fayz yomg'uri selobig'a g'ariq qilsun va mag'firati soiqasidin ruh shu'lasini anvorig'a hariq etsun. Va alarning ruhoniyyatidin Sultoni Sohibqiron humoyun tab'ig'akim, fasohat bahrining samin gavharidur, nur va safolar bersun, va balog'at bo'rjining munir axtaridur, surur va ziyolar yetkursun". Majlis oxiridagi quyidagi ruboiy esa shoirning yuksak mahoratidan baho beradi desak mubolag'a bo'lmaydi:

***Yo rabki, bu shohkim ulus xonidur,***

***Tab' ahliyu zehn xayli sultonidur.***

**Ne xonu ne sultonki, jahon jonidur,**

**Ber umr ila davlat, ulcha imkonidur.** (MN.29)

**“Ikkinchi majlis.** Ul jamoati azizlar zikridakim, faqir alardan ba’zining mulozamatig’a kichiklikda yetibmen va ba’zining suhbatig’a yigitliqda musharraf bo’libmen va holo sana sitta va tis’ina va samona mia tarixidakim, bu muxtasar bitiladur, alar bu fano domgohidin baqo oromgohiga boribdurlar”. Ikkinchi majlisda Mavlono yoshlik chog’larida bo’lsa ham ular bilan uchrashib, suhbatlashish baxtiga muyassar bo’lgan ijodkorlar haqida yozadi. Bu majlisda mazkur asar yozilguniga qadar vafot etgan 91 ta shoir, ulug’ insonlar haqida xabar beriladi. Ulardan bir nechtalari xususida so’z yuritmoqchimiz:<sup>12</sup>

**Sharofuddin Ali Yazdiy** haqida: “Mavlononi... sohibkamolligi olam ahli qoshida musallamdir”, deydi Navoiy. Manbalarda u tarix, falsafa, ilmi nujum, adabiyot, tasavvuf bilimdoni deb ta’riflangan. Navoiy bolalik paytlari Taft shahrida Sharafuddin Ali Yazdiy bilan uchrashgan, alloma yosh Navoiyni duo qiladi. “Majolis”da olimning “Zafarnoma” nomli tarixiy kitobi, “Qasidayi Burda” hamda “Asmaulloh”ning sharhlari, “Hulal”, “Munozara”, “Muntahab” asarlari sanab o’tiladi. “Zafarnoma” Shohruxning o’g’li Ibrohim Sultonga baxshida qilingan. “Asmaulloh” (Allohning ismlari) – Allohning 99 muborak ismi, ularning fazilatlari haqidagi Shayh Muhammad Tobadgoniyning asari bo’lib, Ali Yazdiy unga sharh yozgan. Sharafuddin Ali Yazdiy Taftda 1452 yil vafot etgan.

**Xoja Fazlulloh Abullaysiy** – Samarqandda yashagan bu ulug’ alloma fiqh, arab tili va adabiyotini yaxshi bilgan. “Faqir ikki yil alarning qoshida saboq o’qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, farzand der erdilar”, deb yozadi Navoiy.

**Mavlono Muhammad Tobadgoni**y – Xoji Abdulloh Ansoriyning fors va arab tilida bitilgan “Manozil us-soyirin” asariga sharh yozgan. Sa’j (nasr) san’atining yuksak namunasi bo’lgan bu asar didaktik dostonlar yaratilishida zamin bo’la olishi bilan ham badiiy qiymatga ega.

---

<sup>12</sup> G’aniyeva S. Gar dilbaru dilhoh esang. “Kitob dunyosi” gazetasi. 2012 yil, 1- noyabr.

**Shayh Kamol Turbatiy** – Ko’p diqqatlik va tobe’lik kishi erdi (ya’ni, nozik ma’noli she’rlari bor, iste’dodli shoir - S.G’.). Xofiz g’azallariga ko’p muxammaslar yozgan” shoirdir. Navoiy Mashhadda yashagan paytlari qattiq xastalanganida Shayh Kamol Turbatiy undan xabar olgani, u bilan tez-tez yaxshi suhbatlashib turgani haqida bayon etadi.

**Darvesh Mansur** – sabzavorlik shoir, uning aruz, badiiy san’atlar haqidagi asarlari bor. “Faqir aruzni Darvesh qoshida o’qubmen, Darvesh qirq bilan ellik yoshinda olamdan o’tdi”, deya e’tirof etadi Navoiy.

Astrabodlik **Xoja Hasan Xizrshoh** – nasta’liq xatini yaxshi yozgan bu shoir “Layli va Majnun” qabilida “Zayd va Zaynab” nomli masnaviy bitgani, yana bir shoir **Xoja Mas’ud Qumiy** Husayn Boyqaro tarixini, “Yusuf va Zulayho”, “Shams va Qamar”, “Tig’ va qalam” nomida doston hamda munozara yozgani haqida ma’lumotlar berilgan.

**Xoja Yusuf Burxon** – mashhur shayh Ahmadi Jomiy avlodidan, tasavvuf bilimdoni bo’lgan mazkur shoirni Navoiy “musiqiy ilmni ham yaxshi bilur erdi va faqir musiqiy fanida aning shogirdimen. Ko’proq o’z she’rig’a musiqiy bog’lar erdi. “Isfahon” amalini yaratgan”, deb yozadi.

**Mavlono Javhariy** – samarqandlik shoir, “Siyar un-nabiy” (Payg’ambar xislatlari) nomli asari bor, aruzni bag’oyat chuqur tushungan shoir. Yetti qalamda ham xatni go’zal yozgan. U ilmi musiqiy va advor (musiqi nazariyasi) va boshqa sohalarni puxta bilgan deb ta’riflanadi.

Andijonlik shoirlar **Mavlono Safoiy** va **Yusuf Bade’iy**lar bilan Navoiy Samarqandda ekanida uchrashgan. Yusuf Bade’iy keyin Hirotga kelgan, yaxshi suhbatlari bor, aruzni yaxshi bilar edi, deydi Navoiy.

**Mirzobek** – insoniyat va xushaxloqlikda Xuroson va Samarqandda yagona bo’lgan bu shoir yosh vafot etgani aytiladi. Xondamir “Makorim ul-axloq” asarida Mirzobekning otasi Amir Sulton Hasan ekanligi va ular “Ko’p ichish orqasida o’lib ketgan”ini yozgan.

**Sayyid Hasan Ardasher** haqidagi soʻzni Navoiy “bu faqirgʻa ota mahobasida erdi”, deb boshlaydi. Tasavvufni yaxshi bilgan, har ikki tilda nazm aytgan zot edi. Navoiy bu ulugʻ zot bilan uning hayoti soʻngigacha qalin doʻst, maslakdosh boʻlgan. U Navoiyning hayoti, ijodiy kamolotida muhim oʻrin tutgan. Shoir Samarqanddan sheʼriy maktubi – “Hasbi hol”ni Sayyid Hasanga yoʻllagan. Unga atab manoqib (yaxshi va goʻzal sifat, xislat, fazilatlar madh etilgan – S.Gʻ.) tarzida “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asarini yozgan. Vafot etganida 112 misradan iborat marsiya bagʻishlagan. Yuqorida yodga olingan shoirlar kitob yozgan ulugʻlardir. Alohida asar yozishmagan boʻlsada, sheʼriyatga ixlos qoʻygan shoirlar haqida ham “Majolis un-nafois”da soʻz yuritilganligini aytish joiz.

Shu oʻrinda ikkinchi majlisda zikr etilgan yana bir necha turkigoʻy shoirlar nomini keltirib oʻtishni joiz deb topdik.

**Mavlono Tarxoniy** – andxudlik shoir, Jomiy sheʼrlariga javoblar yozgan. Navoiy: “Baʼzi mahodim Samarqandda bandgʻa tushkanda bu turkcha sheʼrni aytqandur”, deydi.

**Darvesh Nozukiy** – sipohiylikni tark etib, Mashhadda goʻshanishin boʻlgan, ikki tilda sheʼrlar yozgan. Turkiy bayti:

***Birovkim chiqti eldin ogoh uldur,***

***Gadolikdin kim ogohdur shah uldur.*** (MN.55)

**Mavlono Lutfiy** – Navoiy Lutfiyni “Malik ul-kalom”, deb taʼriflaydi. “Forsiyda va turkiyda yozadi, ammo turkiyda shuhrati koʻproq erdi. Turkcha devoni mashhurdur”. Navoiy Lutfiy “Zafarnoma”ni tarjima qilgani, forsiyda qasidalarni ustozlarga javob tarzida bitganini taʼkidlaydi. “99 yil yashadi va oxir umrida “oftob” radifli sheʼr aytdikim, zamon shuarosi tatabbuʻ qildilar”. 1997 yilda Anqarada shoirning Gunoy Qaragʻoch nashr qilgan devonidan olingan bizda eʼlon qilinmagan “Hamd”, “Naʼt”, 4 qasidasi, 39 gʻazal, 17 ruboiysi, 25 tuyuq, 24 fardi “Lutfiy: Manzumalar” nomida oʻzbek kitobxonlariga ham yetkazilganligi hayrli boʻldi.

**Yaqiniy** – tabiatida bo'lgan “beadabona so'zlardan tavba qilib, oxir damida to'g'ri yo'lga o'tgan”, deb yozadi Navoiy u haqda. Shoirning “O'q va Yoy” munozarasi bor.

**Atoiy** – turkigo'y shoir, xushxulq bo'lgan, she'rlari turklar orasida ko'p shuhrat tutgani aytilib, uning quyidagi bayti keltiriladi:

***Ul sanamki, suv yaqosinda paridek o'lturur,***

***G'oyati nozukligidin suv bila yutsa bo'lur.*** (MN.63)

**Muqimiy** – hirotlik, darvesh mashrab shoir. Tasavvuf istilohlarini yaxshi bilgan. Turkiy tarje'bandidan bayt keltirilgan:

***Sensen asli vujudi har mavjud,***

***Sendin o'zga vujudda ne vujud.*** (MN.63)

**Kamoliy** – Balxda yashagan, turkigo'y shoir, she'rlari shuhratdan xoli bo'lmagan. Matla'i:

***Irning qulidur nayshakar, ey jon beli bog'liq,***

***Gul dog'i yuzung bandasidur to'ni yamog'liq.*** (MN.63)

**Sakkokiy** – samarqandliklar bu shoirga g'oyatda ixlosmand bo'lishgan. Navoiy Samarqandda yashagan paytida uning she'rlarini so'ratadi. Sakkokiyning Xoja Muhammad Tarso, Xalil Sulton, Ulug'bek Mirzo, Arslon Xoja Tarxonlarga bag'ishlangan qasidaları bor.

**Mirzo Xoji So'g'diy** – samarqandlik, Navoiy bu shoir ba'zida ajoyib ma'noli she'rlar yozar, lekin so'zlarni rangli qilib bitar edi, deydi. Matla'i:

***O'xshatti qomatingga sanavbarni bog'bon,***

***Bechora bilmas ermish alifdin tayog'ni.*** (MN.64)

Navoiyning tog'asi **Mir Said Kobuliy** ikki tilda she'r yozgan, turkiyga ko'proq moyil bo'lgan. Navoiy undan bir tuyuq keltiradi:

***Ey muhiblar, yetsangiz gar yoza siz,***

***Gul adoqinda xumore yozasiz.***

***Gar men o'lsam, turbatimning toshig'a***

***“Kushtai bir sho'x erur” deb yozasiz.*** (MN.66)

Navoiyning yana bir tog'asi **Muhammad Ali** "G'aribiy" taxallusida she'rlar bitgan. Juda mashhur cholg'uchi bo'lgan. Musiqa ilmini puxta bilgan. Husayn Boyqaroning unga iltifoti, inoyatlari o'zgalardan ko'proq erdi, deydi Navoiy. Tazkiraning ikkinchi majlisida Shosh, Samarqand, Turbat, Xorazmda yashagan ko'pgina shoirlar haqida ma'lumotlar bor. Ularning she'rlari o'sha davr adabiy jarayoni, janrlar ravnaqi, ma'naviyat masalalari haqida muxtasar bo'lsada, tasavvur uyg'otadi. Ikkinchi majlis esa quyidagicha yakun topadi:

*"Bu latofat oyin aizzag'a va bu balog'at tazyin ajillag'akim, tab'lari natijasidin olam ahli xushhol va zehnlari bodasidin xotirlari sog'ari molomoldur, tengri taolo alarg'a bog'i rizvonni maqom qilsun, ravzai jinonda orom bersun va Sulton sohibqiron ro'zgorig'a ruhlaridin madad va fayzi beadam yetkursun.*

***Shohekim, erur sipehr miqdorlig'i,***

***Tufroq aro xasm boisu xorlig'i,***

***Topsun bular arvohi madadkorlig'i,***

***Har ishtaki bo'lsa tengrining yorlig'i".*** (MN.69)

**"Uchinchi majlis.** Alar zikridakim, holo zamon sahoyifida maoniy abkori alarning daqiq ta'blari mullaboflig'idin nazm libosi kiyadur va nazm libosi alarning amiq zehnlari muyshigoflig'idin san'at va salosat naqsh va nigori topadurkim, ba'zining mulozamatig'a musharraf va sarafroz va ba'zining musohabati bila xushnud va bahramanddurmuz". Bu majlis muallifning o'zi bilan bevosita shaxsiy munosabatda bo'lgan, birgalikda ijod etgan shoirlar, chunonchi Navoiyning do'sti va ustozi Abdurahmon Jomiy va boshqalarga bag'ishlanadi. Bu bo'limda hammasi bo'lib 174 ta adib haqida ma'lumot beriladi. Ushbu ijodkorlarning ayrimlari bilan tanishtirib o'tamiz:

"Donishu fazl gavharining koni" **Abdurahmon Jomiy** bilan "Majolis"ning uchinchi majlisi boshlanadi. Navoiy o'z fikrlarini ta'rif va tahsinlarda bayon etadi. Asarlari nomini keltirishning o'zi bu vasflardan oshadi" – deydi va duo bilan yakunlaydi. Navoiyning piri, ustozi bo'lgan Jomiy bilan do'stlik rishtalari g'oyat mustahkam bo'lgan. Ular ijodiy hamkorlikka katta e'tibor bilan qaraganlar. Bu haqda

Navoiyning “Hamsat ul-mutahayyirin” asarida g’oyat muhim ma’lumotlar berilgan. 1492 yil Jomiy vafot etadi. Bu Navoiy uchun og’ir yo’qotish edi. 1492-1494 yillarda saroyda Majiduddin, Nizomulmulklarning fitna-fujurlari avjiga chiqqan, Navoiyga Jomiydek do’st, sirdosh va maslahatgo’y yetishmaganidan ul zotning iztirobi cheksiz edi. Navoiyning Jomiy haqidagi fikrlari “Hamsat ul-mutahayyirin” asarida va dostonlarida berilgan alohida madhiyalar hamda uning vafotiga yozilgan marsiyasida qalamga olingan.

**Amir Shayxim Suhayliy** – iste’dodi va zehni yuksak, axloqi go’zal, deya ta’riflangan. U Husayn Boyqaro davrida saltanat ishlarida maslahatchilik qilgan. Suhayliyning “Iydiya” qasidasidan matla’ keltiriladi:

***Shukr, ey dilki, digar bor ba sad zebu jamol,  
Gardani shohidi iyd ast darog’ushi hilol.*** (MN.72)

(ya’ni: shukr qil, ey ko’ngul, ya’ni yuz bezak va go’zallik bilan bayram go’zalining gardani yangi oy og’ushiga kirdi.) Yana boshqa she’rlaridan ham namunalar berilgan.

Davlatshoh Suxayliyning har ikki tildagi go’zal she’rlaridan keltirgan. Uning turkiy g’azalidagi ushbu misralar shoir iqtidorini namoyon qilib turibdi:

***O’zmasun deb rishtai jonim, ko’nglumni bog’lamang.  
Kim , necha tor o’lsa nozuk etmas oning quvvati.  
So’rsalar ahbob ko’nglum holatin ayt, ey sabo,  
Kim, bir otashnok yuz birla tutoshmish suhbat***<sup>13</sup>.

Suhayliy Kamoliddin Husayn Koshifiyning “Kalila va Dimna” asarini “Anvori Suhayliy” nomida nazmda tarjima qilgan.

**Mavlono Binoiy** – Navoiy u Hirotda tug’ilgan, tahlilga jiddiy mashg’ul bo’lgan, xatga ishq paydo qildi, oz fursatda juda yaxshi yoza boshladi, advor-musiqiy ilmiga berildi, risola ham yozdi, deb ta’riflagan. “Ammo mu’jib (kibrli, manmanlik - S. G’) va mutasavvir (tasavvurga berilgan - S.G’)lig’idin Hirotda el ko’nglig’a maqbul bo’lmadi ... el sha’ni tashne’idin (ta’na va malomat - S.G’) Hirotda yashay olmadi ...

---

<sup>13</sup> G’aniyeva S.Fazl gavharining koni .“Kitob dunyosi” gazetasi. 2012 yil, 30- noyabr.

ammo chun yigit durur qobil va ko'p g'urbat va shikastliklar tortdi, umid ulkim nafsiga ham shikast va tavoze' yetmish bo'lg'ay" - deb yozadi va forsiyda bir baytni keltiradi. "Majolis"ni forsiyga ikkinchi tarjimoni Muhammad Qazvinij Binoiyni Navoiyga hazil-mutoyibalari, qochirimlarini bayon etadi. Binoiyni "Bog'i Eron", "Bahrom va Behruz" nomli va Shayboniynon haqida ham masnaviylari bor.

**Mavlono Abdulloh** – Jomiyga qarindosh edi, lekin ma'no jihatidan g'oyat yiroq edi, deb yozadi. "Xamsa"dan "Layli va Majnun", "Husrav va Shirin", "Haft paykar" va "Zafarnoma" dostonlarini Abdulloh 1490-91 yillarda yozgan.

**Mavlono Hiloliy** – Navoiy bu shoirni turk elidandur, hofizasi yaxshidur, ta'bi (iste'dodi - S.G'.) hofizasicha bor, deb ta'rif qiladi va forsiy matla'ini keltiradi.

"Majolis"ni forsiyga ilk bor tarjima qilgan Fahrij Hirotij "Hazrat Navoiyni" "sabaq uqumoq niyati-tavfiq topgay" degan duosi ijobat bo'ldi, shoir she'rning hamma uslubida yetuk mahorat paydo qildi, zamon nodiriga aylandi. "Layli va Majnun", "Shoh va Darvesh", "Sifot ul-oshiqin" masnaviylarini yozdi" deb qayd etadi. Xondamir Hiloliy nomi Nuriddin edi, deydi va ... zamon shoirlarining sarasi, so'z ustalarining tayanchi, qasida, masnaviylarini sanab o'tadi va bir matla', bir ruboiysini keltiradi. Bayt:

***Chunon az po fikand iliruzam on raftoru qomat ham,***

***Ki, fardo bar namexizam, balki fardoyi qiyomat ham*<sup>14</sup>.**

(ya'ni: bugun ul xushraftor va xushqanot meni shunchalik oyoqdan qoldirdi, ertaga, balki qiyomat ertasiga ham o'rnimdan tura olmasman.)

**Mavlono Sayfiy** – buxorolik, shoir, adabiyotshunos (vafoti: 1503) Buxoro va Hirotda tahsil olgan. Uning ikki devoni va "Risolai aruz", "Risolai musiqiy" asarlari bor. Birinchi risolasida she'r va shoirlik, aruz qoidalari, bahr va doiralari sodda va ravon til hamda uslubda bayon etilgan. Xondamir Sayfiy 3 yil shahzoda Boysung'ur Mirzo xizmatida bo'lgani, uning vafotidan so'ng esa Buxoroga qaytgani haqida yozadi.

---

<sup>14</sup> G'aniyeva S. Fazl gavharining koni. "Kitob dunyosi" gazetasi. 2012 yil. 30- noyabr.



“Majolis”ning bu uchinchi majlisida hunarmandlar, hattotlar ham zikr etilgan. Xususan, **Moniy Kosagar** chinni yasagan va inisi uni naqshlagani aytilib, Navoiy “Chin va Xitoda andoq qila olmaslar” deb maqtaydi.

**Asiliy** – nasta’liq xatini yaxshi bituvchi, halvogar **Ofatiy**, g’azlfulurush (yigirilgan ip, kalava sotuvchi) **Zuloliy**, (olimlar matnda bu so’zni g’azlfulurush deb o’qib, Hirotda XV asrda g’azlfulurushlar bo’lgan, ularning g’azallar sotiladigan do’konlari bo’lgan, deb yozganlar - S.G’. Masalan: Ye.E. Bertels “g’azlfulurush” deb o’qib, yozgan edi: “На базарах Герата существовали книжные лавки, где знатоки литературы могли найти любое новое произведение ... Существовали особые торговцы газелями (g’azlfulurush), которым можно было заказать копию лирического стихотворения ...”), kuftapaz (taom turi) **Hoshimiy**, savdogar **Osiliy**, kitob muqovasoz **Fig’oniy**, naqqosh **Fazliy**, tabib **Darvesh Ali**, kordgar (pichoqchi) **Ustod Muhammad Ubahiy**, munajjim **Kavkabiy**, **Sulton Mahmud** kabilar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Uchinchi majlisda 29 nafar mashhadlik shoirlar, 9 nafar astrobodlik va Marv, Nishopurdan bo’lgan shoirlar, ayniqsa, yosh ilmi toliblarga e’tibor qilingan.

Turkigo’y shoirlardan **Mavlono Gadoiy** sohibi devon haqida bizda 1962 yil ilk bor maqola e’lon qilinib, uning she’rlaridan kichik bir majmua nashr qilingan edi. 1973 yilda E. Ahmadxo’jayev Gadoyining Parijda saqlanayotgan devonini so’zboshi bilan e’lon qilgan.

Uchinchi majlisni Navoiy hazratlari quyidagicha yakunlaydi:

“Bu hazratkim, bu majlis ahlining sadrinishinidurlar sahobi maoniylari gavharrez va bu jamoatkim, ul hazrat xirmani maoniysining xushachinidurlar, gulshani tab’lari gulafshon va sumanbez, sarxaylg’a vusuli ilohi yetsun va xaylg’a sharafi saodat va mag’firati nomutanohi kasb etsun. Va Sultoni sohibqironkim, ul hazratning nukot va maorifining daqoyiqi alfozini va haqoyiqi maoniysini hech donishvarlardin yaxshiroq bilmadi va hech ahli tab’ alarning ushri ashirini fahm qilmadikim, majlisda nazm tariqida hamroz erdilar va nasr uslubida puktapardoz. Ul hazrat ruhoniyyatidin alarg’a fayzi beg’oyat va imdodi benihoyat yetsun va bu faqir

hamkim, bu hazratning bandai dargohi va ul hazratning xoki rohimen mahrum bo‘lmasun”.

**Chun bor edilar bu hazratu ul hazrat,  
Kim, ul hazrat haq sari qildi rihlat.  
Bu hazrat ko‘p umr ila topsun davlat,  
Men bandag‘a davlatida kunji uzlat. (MN.117)**

“Bu hazratkim...” Abdurahmon Jomiy nazarda tutiladi. Ruboiydagi “bu hazrat” Sulton Husayn Boyqaroni, “ul hazrat” esa Jomiyni anglatadi. “...ul hazrat haq sari qildi rihlat” misrasidan Jomiyning vafot etgani anglashiladi. Ana shu uchinchi majlis avvalida esa Jomiyga hali hayot shoir sifatida ta’rif beriladi. Gap shundaki, Navoiy “Majolis un-nafois”ni to‘ldirib, uning har majlisi alohida xotimalar yozgan va asarning ikkinchi tahririni yaratgan. Bu tahrirni shoir 1498 yilda amalga oshirgan. Binobarin, bu vaqtda Jomiy hayotdan ko‘z yumgan edi.

**“To‘rtinchi majlis.** Asr fuzalosi zikridakim, she’rg’a mashhur va mubohi emasturlar, ammo alardin nazm tariqida ko‘p latoyif zohir bo‘lur va ko‘p zaroyif bosh urar”. Bu majlisda Navoiyga zamondosh bo‘lgan 72 ta havaskor shoir yod olinadi. Tazkiraning bu qismi bag‘oyat e’tiborga sazovordir. Chunki unda o‘z kasb-korlarini tark etmagan holda she’riyat bilan shug‘ullangan shahar hunarmandlari, mehnat ahllari haqida so‘z yuritiladi<sup>15</sup>.

**Pahlavon Muhammad Kushtigir** davr varzish (sport - S.G’.)i soqolida yengilmas pahlavon, musiqiy ilmda tengi yo‘q bu siymo Navoiyga ota o‘rnida bo‘lgan. U yaratgan dilkash naqshlar (yoqimli kuy, ashulalar - S.G’.), amallar (ohang - S.G’), qavllar (go‘zal, musiqabop she’r - S.G’.) hamda ularni ijro etish san’atini Navoiy ta’rif qiladi. Pahlavonning “Chahorgoh”, “Segoh”, “Panjgoh” kuylari Xurosondan Iroqqacha mashhur bo‘lib, shu yurtlarda sevib ijro etilgan ekan.

---

<sup>15</sup> G’aniyeva S. //Fozil va hunarmandlarning tab’i nazmi. “Kitob dunyosi” gazetasi. 2013 yil. 9-yanvar. 1- son.

Navoiy Pahlavonning hazilga moyilligi haqida o'zining "Holoti Pahlavon Muhammad" asarida maroqli bir lavha beradi. Unda Nasimiy va Lutfiy ijodlarining mohiyati yodga olingan.

"Soqiynoma" da ham Pahlavon vafoti Navoiy uchun og'ir yo'qotish bo'lganligi, barcha hamdamlar ichida sirdosh, hamdardidan ayrilgani chuqur qayg'uli so'zlarda aks etgan, shu parchani marsiya ham deyish mumkin.

**Mir Atoulloh** – Amir Burhonuddin Ataulloh Mahmud Husayniy Nishopurdan, Hirotga tahsil uchun kelgan. She'r va muammo va badiiy san'atlarda mahorat paydo qildi. "Badoe'i Atoiy" nomli devoni bor (shoirning o'zi uni "Badoe' ul-sanoe'" deb nomlagan - S.G'). Xondamir ma'lumotiga ko'ra Atoulloh umri oxirlarida ramad (ko'z og'rig'i - S.G') kasali bilan xastalangan va ko'r bo'lib qolgan. Navoiy shoirning "Maqlubi mustaviy" (arab alifbosida yozilgan ongdan ham, chapdan ham bir xil o'qiladigan ibora yoki she'r san'ati - S.G')lari haqida so'zlab, uning bu san'atda ustod bo'lganini aytadi. Ataulloh "Ixlosiya", "Sultoniya" madrasalarida mudarrislik qilgan. Atoulloh asari haqida Navoiy "Ma'lum emaskim, bu fanda hargez hech kishi ancha jam' va mufid (foydali - S. G') kitob bitmish bo'lg'ay", deb yozgan. "Badoe' us-sanoe'"ni 1971 yil Dushanbeda R. Musulmonqulov so'zboshi, izoh va lug'at bilan, 1981 yil Toshkentda A. Rustamov o'zbek tiliga tarjima qilib nashr qildi.

**Mavlono Husayn Vo'iz** (vafoti 1505) – Husayn bin Ali Bayhaqiy Sabzavoriy Voiz, laqabi Kamoluddin. Navoiy "shoir taxallusi "Koshifiy" dir deb ta'riflaydi. Uning va'z, insho, nujum sohalarida mashhur asarlari bor. Jumladan, "Javohir ut-tafsir" ("Al-Baqara surasi sharhi"), deb yozadi. Xondamir Koshifiy haftaninig har bir kuni qayerda va'z aytganini va Kamoluddin Husayn qalamiga "Javohir ut-tafsir", "Mavohibi aliya", "Ravzat ush-shuhoda", "Anvori Suhayliy", "Mahzan ul-insho" kabi asarlar mansubligini yozgan. Manbalarda Koshifiy "Oyinai Iskandariy"ni forsiyda bitgani aytiladi (bu asarni "Jomu jam" ham deyiladi), "Axloqi Muhsiniy", "Al-Arba'un", "Asrori Qosim", "Badoe' ul-afkor" (she'riy san'atlar haqida), "Tuhfat ul-uslub", "Jome' us-sittin" ("Yusuf" surasi tafsiri), "Ravzat ush-shuhoda", "Sab'ai

Koshifiya” (ilmi nujum haqida), “Marsad ul-asno”, “Matla’ ul-anvor” nomli asarlar keltiriladi. Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” asari kitobat san’atining go’zal asliyatini, xattot Muhammad Ali ko’chirgan faksimil nusxa, Mahmud Hasaniy va Asadali Hakimjonov tarjimasida Bahrom Abduhalimov so’zboshisi bilan 2010 yil nashr etildi.

**Mirxond** – Muhammad ibni Xovandshoh ibni Mahmud (1435-1498). Navoiy uning ilmga berilgani, donishmandligi, axloqi yaxshiligini ta’riflaydi va insho, tarix fanida benazir erdi deb yozadi. Navoiy “avvaldan bu kungacha” bo’lgan davr haqida tarix yozishni undan iltimos qilgan va Mirxond “Ravzat us-safo” nomli Temuriylarga bag’ishlangan asarini yaratgan. 7 jilddan iborat bu asarning yettinchi jildini uning nabirasi – qizining o’g’li Xondamir yozgan. Mirxond ba’zan she’rlar ham yozgan. Navoiy Mirxondning Xusrav Dehlaviyning “Daryoyi abror” dostoni tatabbu’ida quyidagi matla’ini keltiradi:

***Harki dast- az obi hayvon shust, Xizri vaqt ust,***

***V-onki az zulmati nafs omad burun Iskandar ast.*** (MN.125)

(ya’ni: kimki hayot suvi bilan qo’l yuvsa, zamona Xizri o’shadir, kimki, nafs zulmatidan chetga chiqsa, Iskandar o’shadir.)

Navoiy Mirxondan so’ng **Xondamir** haqida “Mirxondning farzandidur va salohiyatli yigitdur. Tarix fanida mahorati bor”, deb yozadi va bir muammosini keltiradi. Taniqli olimlar Xondamir Mirxondning o’g’li, jiyani “Majolis”ni forsiyga ikkinchi tarjimoni Xoharzodasi deb yozganlar. Xondamir Navoiy tarbiyasida olim bo’lib yetishgan, uning kitobdori uxdasini bajargan. Navoiy vafotidan so’ng “Makorim ul-axloq” – shoir hayoti, ijodi, faoliyati, ohirgi damlari haqidagi kitobini yozgan. Bu asarning Britaniya muzeyida saqlanayotgan yagona nusxasidan 1938 yil faksimili olinib, M. Faxriddinov va P. Shamsiyevlar tomonidan o’zbek tiliga tarjima qilindi. I. Sultonning so’zboshisi bilan uchinchi nashri 1967 yilda chiqqan. Xondamirni yuqorida yodga olganimiz “Habib us-siyar” yana “Xulosat ul-axbor”, “Dastur ul-vuzaro”, “Nomai nomiy” asarlari ma’lum. Xondamir hayoti va ijodi haqida D. Yusupova alohida tadqiqot nashr qilgan.

**Mir Kamoluddin Husayn** – Xurosonda ilm o'rgangan, Iroqda Sulton Ya'qub bilan uchrashgan, uning hurmatiga sazovor bo'lgan. Hirotga qaytgach Jomiy xizmatida bo'lgan. Ko'rinishi xush va ta'bi ham yaxshi, bir necha risolalari ham bor, deb yozadi Navoiy va uning Abdulloh Ansoriyning “Manozil us-soyirin” asariga sharh yozganini aytib, bir baytni ham keltiradi. To'rtinchi majlis Navoiyning quyidagi so'zlari hamda ruboiysi bilan yakunlanadi: “Bu diqqatpesha va zarofatandesha azizlardin agarchi ba'zi ajal mayidin mast va bexabardurlar, ammo ba'zi hayot bazmida sarmast va jilvagar va nazmgustardurlar, tengri taollo o'tgan jamoatni o'z qoshidin g'ariyqi daryoi rahmat qilsun va qolg'on ahli xizmat va ubudiyatni shoh lutfidin shoyistai ehsoni beminnat.

**Ul xaylg'a tengri rahmatu yor o'lsun,**

**Bu jam'g'a shah lutfi madadgor o'lsun,**

**Ham shohqa yuz falakcha miqdor o'lsun,**

**Ham qullari ehsong'a sazovor o'lsun!” (MN.146)**

“**Beshinchi majlis.** Xurosonning va ba'zi yerning mirzodalari va soyir odamizodlari zikridakim tab' salomati va zehn istiqomati alarg'a boisi nazm bo'lur, ammo mudovamat qilmaslar”. “Tazkirat ush-shuaro” muallifi amir Davlatshoh nomi bilan boshlangan bu majlis Xuroson va unga yondosh yerlarda yashagan va adabiyot bilan mashg'ul bo'lgan 21 ta mirzoda va aslzodalarga bag'ishlanadi.

**Amir Davlatshoh Samarqandiy** – Amir Alouddavla Isfaroyiniyning o'g'li, xushtab va darveshvash kishi erdi, deya ta'riflaydi Navoiy. “Majmua ush-shuaro” – Shoiralar yig'ini asari 892 (1486-87) yilda yaratilgan tazkira. Muhammad Ramazoniy tomonidan E. Braun muqaddimasi va o'zining so'z boshisi bilan Tehronda nashr etilgan.

**Mir Husayn Ali Jaloyir** – shoir, arbob. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, otasi Ali Jaloyir Abulqosim Bobur beklaridan bo'lgan. O'zi esa Husayn Boyqaro saroyida qushbegi bo'lgan. Qasidani yaxshi yozar ekan. 917 (1511-1512) yillarda Bobur Samarqandni olganida 5-6 yil uning qoshida bo'lib, yaxshi qasidalar bag'ishlagan. Navoiyning inisi Darvesh Alining xotini Ofoq begim ana shu Husayn

Ali Jaloyirning qizi bo‘lib, she‘riyat sohasida zukko qobiliyati bor ekan. Lekin Bobur Husayn Ali anchayin bebosh, qimor o‘ynash ishqibozi bo‘lganligini qayd qilib o‘tgan.

**Mir Haydar** – Navoiyning jiyani, shoir. Xalq orasida “Haydar telba” nomi bilan mashhur. Navoiy Astrobod hokimi ekanligida Haydarni ba‘zi rasmiy topshiriqlar bilan Hirotga yuboradi. Norasmiy bir ziyofatda Navoiyga suiqasd qilingani, unga oshpaz zahar qo‘shilgan taom bermoqchi bo‘lganini xabar qiladi. Husayn Boyqaro bundan voqif bo‘lgach, Navoiyga maktub yo‘llaydi. Navoiy esa Haydarning aytganlarini butunlay rad etadi. Shoir maktublaridan birida shoh nazdida Haydar gunohidan o‘tganligi uchun minnatdorlik izhor qiladi. Lekin 1498 yilda Haydar Sabuhiy qatl etiladi. Bu Navoiy uchun katta musibat bo‘ladi, chunki Haydarni shoir o‘zi tarbiyalagan bo‘lib, uni farzandi o‘rnida ko‘rar edi.

**Muhammad Solih** (tug‘. 1455, Xorazm - vaf. 1535, Buxoro) – shoir, tarixchi, davlat arbobi. Xorazm hokimi Nur Saidbek oilasida tug‘ilgan. Bobosi Amir Shoh Malik – temuriylar, jumladan Ulug‘bek Mirzo xizmatida bo‘lgan. Muhammad Solih dastlab Xorazmda, so‘ng Hirotida tahsil olgan. Husayn Boyqaro saroyida, keninchalik Shayboniynxon xizmatida bo‘lgan. 1500 yillarda Buxoro dorug‘asi hokimi qilib tayinlangan. Muhammad Solih “Shayboniynoma” nomli tarixiy doston yaratgan. Uning yagona qo‘lyozma nusxasi Venada saqlanadi. Bobur Muhammad Solih haqida “Sharir (yaramas) va zolim tab’ va berahm kishi erdi”, deb yozadi.

**Abduqahhor** – Navoiy bu shoirning muammo fanig‘a qobiliyati bor, deb ta’riflaydi. Xondamir “Habib us-siyar”da ikki joyda Mavlono Sharafiddin Abduqahhor degan shoir Abulqosim Bobur hamda qozi Qutbiddin Muhammadlar vafotiga tushirgan ikki ta’rixini keltiradi.

**Darvesh Abdulloh** – Navoiyning aytishicha: “Tarxoniylarda Shayh Salmon atkaning o‘g‘lidur. Tab’i nazmlarg‘a kichikdin moyil erdi”, hamda ushbu baytni keltiradi:

*Az xayoli labu dandoni tu chashmam ki pur ast,*

*Hamchu ro‘destki, sangash hama yoqutu dur ast.* (MN.153)

Tarj.: Labing va tishing xayolidan ko‘zlarim jiqqa yoshdir; bu xuddi toshlari yoqut va dur bo‘lgan anhorga o‘xshaydi. E’tibor qaratadigan jihati Navoiy har majlisni yakunlayotganda uning ijodkorlariga o‘zining eng samimiy niyatlarini bildirib o‘tadi. Beshinchi majlis ham bundan mustasno emas albatta: “Bu tab’ latofati bila orosta, ozodalar va zehni zarofati bila piyrosta mirzodalardin ham agarchi ba’zi adam makmanida pardai ixfodadurlar, ammo ba’zi vujud anjumanida zoviyai zuhur va baqodadurlar, ma’dumlarni haq rahmati mag‘firatidin bahramand qilsun va mavjudlarni shohning xizoni in’omu lutfidin arjumand va sarbaland etsun!

**Yo rabki, chu shahni aylading arsh janob,  
Zillullah aning zotig‘a yozildi xitob,  
O‘tgan qullar yozug‘ini qilma hisob,  
Qolg‘onlarin et bazmida iqbol taob”. (MN.155)**

“**Oltinchi majlis.** Xurosondin o‘zga mamolikning fuzalo zurafo va shuarosi zikridakim, bu asrda holo bordurlar va har qaysi o‘z xo‘rdi-holig‘a ko‘ra, shirin guftor va sohibi devon va ash‘ordurlar”. Bu majlisda Samarqand, Xorazm, Sova, Sheroz, Shahrisabz kabi shaharlarning tab’ ahllari, hammasi bo‘lib 32 kishi haqida so‘z yuritiladi.

**Ahmad Hojibek** – Malik Koshg‘ariyning o‘glidir, samarqandlik shoirdir, taxallusi Vafoiy. Hirotida 10 yilga yaqin yashagan. Navoiy ta’biri bilan aytganda: “Surati xush va siyrati dilkash, axloqi hamida va atvori pisandida yigitdur”.

**Xoja Xurd** – Samarqandning yaqqalam qozisi, “Ulug‘bek Mirzo” madrasasining mudarrisi bo‘lgan. U avliyolik rutbasiga erishgan Bobo Xudoydod deganning vafotiga ta’rixini tushirgan. Abjad hisobiga ko‘ra 862 (1457-58) yil kelib chiqadi.

**Amir Mahmud Barlos** – Boburning yozishicha, Mahmud Barlos Abusaid Mirzoning uchinchi o‘g‘li Sulton Mahmud Mirzoning beklaridan bo‘lgan. Harbiy salohiyati bor bo‘lib, she’riyat bilan shug‘ullangan. Devon tartib qilgan shoir.

**Darvesh Dehakiy** – “Majolis” tarjimoni Muhammad Qazviniiy o‘zidan ilova qilib, yozadi: “Darvesh Dehakiy hamshaharim edi. Men u bilan ko‘p suhbatlashganman. U g‘oyat kamsuqum odam edi, tanparastlik unga begona edi. U

to‘quvchilik ham qilar edi. U karbos (dag‘al ipli gazlama, bo‘z) degan matoni yaxshi to‘qir, xaridor topilsa, arzon-garov berib yuborardi. Shohlar dasturxoniga ko‘z tikmas, taomini yemas edi. Sulton Ya‘qubxon Darvesh Dehakiyni huzuriga chorlaganda u bir baytni o‘qibdi. Uning birinchi misrai ma‘nosi shunday ekan: “Agar uning o‘qi oldinga yo‘nalsa, orqamga qalqon tutaman”. Buni eshitgan shoh taajjub qilib, o‘qdan saqlanish uchun orqaga qalqon tutishi nimasi? – deganda, shoir: “Sabr qiling ikkinchi misrani eshiting debdi: “Toki uning o‘qi – novakining chiqib ketish yo‘li bekilsin”. Shoh shunda lol qolib, shoirga: “Nimaki tilaging bo‘lsa aytgil, bosh ustiga bajaraman”, debdi. Shoir “Do‘stga do‘stdan yaxshi narsa yo‘q” – deb javob beribdi. Shoh yana fikrini qaytarganda, shoir: “Bog‘larimdan olinayotgan xirojdan ozod qilsangiz”, - debdi. Shoh bajaribdi. Muhammad Qazviniiy Darvesh Dehakiyning yana 8 baytini keltiradi.

**Qozi Iso** — Muhammad Qazviniiy Navoiy so‘zlariga ilova qilib, “Qozi Iso Sulton Ya‘qubxonni hamisha adolatga undar edi. Adolat bilan ko‘pchilikning qalbida hurmat imoratini qurgan edi”, deb yozadi va Sulton Ya‘qubning hamshirasini (sutdosh singlisini) yaxshi ko‘rib qolgani, Sulton ularning qovushishi yo‘lida uringani, lekin turklarga xos johilligi ustun kelib, bu ishdan qaytganini ham bayon etadi. Shoir she‘riyatidan yana 6 bayt keltiradi.

**Xoja Afzal** — Xondamirning “Dastur ul-vuzaro” (Vazirlar dasturi) asarida bu shoir va davlat arbobining nomi Xoja Afzaliddin Muhammad Kirmoniy tarzida, “Kirmon shoirlari tazkirasi” nomli kitobda (tuzuvchi Eron olimi Husayn Behzodiy) esa Xoja Afzaliddin Mahmud bin Xoja Ziyoviddin Muhammad deb beriladi. Fazlu kamolotda, davlat devoni ishlarini tartibga solishda benazir bo‘lgan Xoja Afzal 878 (1473) yilda vazirlik lavozimini egallaydi. 1487 yilda Husayn Boyqaro Marvda qishlab qolgan paytida Majdiddin Muhammad Xoja Afzal payiga tushadi. U esa Astrobodga Navoiy huzurigapanoh istab keladi. Navoiy maslahati bilan Xoja Afzal Iroq va Ozarbayjonga Sulton Ya‘qubbek qoshiga jo‘naydi. 893 (1488) yilda Xoja Afzal haj safariga boradi. 903 (1497-98) yilda esa Hirotga qaytadi va Navoiy qo‘llab-quvvatlashi bilan yana vazir, keyinchalik devon boshi qilib tayinlanadi. Xondamir



yozishicha, Xoja Afzal mansabdorlik vaqtida madrasa va xonaqoh qurdirgan ekan. U 906 (1501) yil rajab (fevral) oyida vafot etgan. Hirot Gozurgohida Xoja Abdulloh Ansoriy yoniga dafn qilingan.

**Mavlono Shahidiy** — “Majolis” tarjimoni Muhammad Qazviniiy ilova qilib, Iroqdan Xurosonga kelganida Shahidiy Abdurahmon Jomiiy suhbatiga musharraf bo‘lganini va o‘zi bilan ko‘p suhbatlarda bo‘lganini yozadi. Shahidiy 1 yilcha Qazvinda yashagan va Gilon Sultoni Mirzo Ali bu shaharga kelganida shoirlarga ancha tillo pul in‘om qilgan ekan. U esa tillolarni uyning burchagiga to‘kib qo‘ygan va yorlonlaridan kimda zarurat bo‘lsa, olib sarf qilavergan ekan. Shoirda mol-dunyo xirsi bo‘lmagani sababli uni devona der ekanlar. Shahidiy bir necha muddat Ya‘qubbek musohibi bo‘lgan, keyin Hindistonga ketgan. Bu shoirdan so‘ng tarjimon Gulxaniy degan Shahidiyning jiyani (xoharzodasi) haqida ma‘lumot va 5 ta baytini keltiradi. Nihoyatda abdol-devona va urushqoq bo‘lgan bu odamga Navoiy salbiy munosabatda bo‘lgan, hatto Hirotidan chiqarib yuborishga ham harakat qilgan ekan.

**Mavlono Xolidiy** – Xisori Shodmon shahridandur, Hiriya kelib uzoq vaqt tahsil olgan deya ta‘riflaydi Navoiy. “Majolis” tarjimoni Faxriy Hirotiiy bu shoir “Faqir odam erdi va qalandar suvratida kezib yurardi”, deb qo‘shadi.

**Mavlono Yoriy** – Faxriy Hirotiiyning qo‘shimcha ma‘lumotiga ko‘ra, Navoiy bu shoirlarga ko‘p shafqatlar ko‘rsatgan ekan. Lekin u podshoh va amirlarning muhrlariga taqlid qilib, muhrlar yasab, yaramas xayollar bilan nishon, farmonlar yozishdek g‘ayriqonuniy ishlarga qo‘l urgan ekan.

**Mavlono Ahliy** – Muhammad Ahliy Sheroziy (tug‘.1455 - vaf. 1435-36, Sheroz) shoir. “Sham’ va parvona”, “Sehriyi halal” nomli dostonlar yaratgan. Yosh hind ayolining eri vafotidan keyin o‘zini gulxanga tashlagani hikoya qilingan har ikkala doston ham she‘riy san‘atlarni ishlatish jihatidan g‘oyat murakkabdir. Salmon Sovajiiyning “Qasidai masnu”si yo‘lida Navoiyga, Ya‘qubbekka, uning ukasi Yusufbekka hamda Ismoil Safaviyga bag‘ishlagan qasidalari ham nihoyatda murakkab uslubda bitilgan. Ye.E. Bertels Ahliy Sheroziyning ham chapdan o‘ngga, ham yuqoridan pastga qarab o‘qish mumkin bo‘lgan bir ruboiysini keltiradi. Mana

shunday mazmunga ko‘ra san‘atlar istifodasiga o‘ta berilishlik o‘sha davr adabiy jarayoniga xos bo‘lgan.

Amir Alisher tazkirasining oltinchi majlisi quyidagicha nihoyasiga yetgan:

“Bu balog‘at maob va fazoyil intisoblardan ham birori, agar zamon sahifasida o‘z nazmlari savodidek mavjuddur, ammo aksari zamona vafosidek nobuddur va podshohlari ham fano mahallidin ketibdurlar, baqo sarmanzilig‘a yetubdurlar. Va filhaqiqat, Sultoni sohibqironning qarobat va tavobiidin erurlar ham modihlari, haq taolo lutfidin ma‘zur va ham mamduhlari ruhi ravzai rizvonda masrur va mabrur bo‘lsun:

**To modihlaridin asar o‘lg‘ay mavjud,**

**Mamduhlari ruhini tutqil xushnud.**

**To modihu mamduhlar o‘lg‘ay nobud,**

**Sultoni zamong‘a umr bergay ma‘bud!”** (MN.167)

“**Yettinchi majlis.** Salotini izom va avlodi vojibul ehtiromlari zikridakim, ba‘zi yaxshi mahallarda xo‘b bayt o‘qubturlarkim, filhaqiqat o‘zlari aytqonidek xo‘bdur va ba‘zi nazm latoyifig‘a mashg‘ul bo‘lubdurlarkim, ul dag‘i matlub va marg‘ubdur”. Bu majlisda Temur xonadonidan 22 ta shaxsning nomi zikr etiladi. Majlis Temuriylar sulolasining asoschisi *Temur Ko‘ragon* nomi bilan boshlanadi. Navoiy Temur she‘r yozmaganini, lekin unda nihoyatda o‘rinli va yaxshi baytlar o‘qish qobiliyati borligini qayd qiladi. Bu haqda buyuk shoir: “Agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar ammo nazm va nasrlarni andoq xub mahal va mavqe‘da o‘qubturlarkim, aningdek bir bayt o‘qug‘on ming yaxshi bayt aytqoncha bor”, - deb yozadi.

*Ulug‘bek Mirzo* – donishmand podshoh bo‘lgan, yetti qiroat bilan Qur‘oni Karimni o‘qiy olgan. Goh-gohida she‘r ham bitib turgan deya ta‘kidlaydi Navoiy va ushbu baytni keltiradi:

***Harchand mulki husn ba zeri nigini tust,***

***Sho‘xi makunki, chashmi badon dar kamini tust.*** (MN.171)

Tarj.: Go‘zallik mulki qanchalik qo‘l ostingda bo‘lsada, sho‘xlik qilmagilki, yomonlarning ko‘zi seni kuzatmoqdalar.

***Ya'qub Mirzo*** – Iroq va Ozarbayjon hukmdori. Navoiy bilan yaqin do'stona munosabatda bo'lgan. Jomiy ham bu hukmdorga husni rag'bat bilan qaragan va “Salomon va Absol” dostonini unga bag'ishlagan. Ya'qub Sulton boshchilik qilgan adabiy-madaniy muhitda ko'plab shoir va yozuvchilar faoliyatda bo'lganlar. Birgina “Majolis un-nafois”ning forsiy tarjimasida Faxriy Hirotiy shu muhitga mansub 40 ta shoir haqida ma'lumot beradi. Navoiy e'tiroficha, Ya'qub Mirzo yaxshigina shoir, she'riyat bilimdoni va uni qadrllovchi shaxs bo'lgan.

***Shoh G'arib Mirzo*** – Husayn Boyqaroning o'g'li. Bobur yozadi: “...bukri edi. Agarchi hay'ati yomon edi, tab'i xo'b edi. Agarchi badani notavon edi, kalomi marg'ub edi. “G'aribiy” taxallus qilur edi, devon ham tartib qilib edi, turkiy va forsiy she'r aytur edi”. Husayn Boyqaro Hirotidan biror yoqqa otlansa, hukmronlikni Shoh G'arib Mirzoga qoldirar ekan. Navoiy “Farhod va Shirin” oxirida Shoh G'arib Mirzoga alohida bob ajratadi. Unda shahzodaning yaxshi fazilatlarini, ilm-fan, ma'rifatga tashnalogini ta'riflaydi va mamlakat hamda xalq taqdiriga aloqador shaxs sifatida diniy bilimlarni (fiqh, hadis va tafsirni), hikmatni, ayniqsa, tarixni o'rganishni nasihat qiladi. Faxriy Hirotiy yozishicha, hirotlik bir shoir “G'aribiy” taxallusini olganda Husayn Boyqaro o'g'lining xotiri uchun uning taxallusini “Majlisiy”ga o'zgartirgan ekan. Navoiy Shoh G'arib Mirzo vafotiga har bandi 6 baytdan iborat 5 bandli (60 misra) tarkibband marsiya yozgan. Unda marhumning kamtar va shirinso'z inson, adolatli va lutf marhamatli shahzoda, zakovatli shoir bo'lgani qayd etiladi. Bu marsiya birinchi marta 1971 yilda (Adabiy meros, 2 sonida) H. Sulaymonov tomonidan nashr etildi. Navoiy ta'biri bilan aytganda “Yettinchi majlisning tuganchisi” quyidagicha: “Bu oliyjoh podshohlar va anjumsipoh falak dastgohlardan avvalg'i Jamshid va Faridun monand ota bila farzandg'a so'ngg'i avlod va axlod va amjodqa falak Jamshid bila Faridung'a ichirgandek, ayog'i ichurdi va vujud bazmgohidin surdi va adam faromushxonasig'a kiyurdikim, dunyoda haq taoloni shohi taxtgir qilg'ondek oxiratda ham muqarrabi dargoh va arshi sarir qilg'ay. Va alarning mulku taxt va saltanatin va toju sipoh va hashamatin alarg'a vorisi barhaq va mulkka horisi mutlaq, ya'ni Sulton Sohibqirong'a musallam tutg'ay va ruhlarining

sham'in ham o'z o'chog'lari shu'lasini bila yorutg'ay va soyir shohzodalar dag'i bu davlatdin bahramand va shoh inoyatidin sarbaland bo'lg'aylar.

**To Temuru Shohrux degan bo'lg'ay ot**

**Andin so'nggi shahlar bori farxunda sifot.**

**Ey davlatu iqbolg'a orostai zot,**

**Majmuicha bo'lsun sanga davroni hayot". (MN.177)**

**"Sakkizinchi majlis.** "Sulton sohibqironning latif tab'i natoyijining zebolari, husn va jamoli zikrida va sharif zehni xasoisining ra'nolari ganj va daloli sharhidakim, har qaysi zamon safhasi bo'stonida ranginlig' va ravonlig'din gul'uzoredur sarvqad va har birisi davron arsasi gulistonida ravonlig' va ranglikdin sarvi ozodedur, ulxad."Bu majlis san'atkorning bolalikdan do'sti **Sulton Husayn Boyqaro** ijodiga bag'ishlangandir.Navoiy bolalikdagi do'sti, bir umrlik ham ijodda, ham siyosiy hayotda hamrohi Husayn Boyqaroni quyidagicha ta'riflaydi: "Saltanat bahrining durri yaktosi va xilofat sipehrining xurshedi jahonorosi, saxovat havosining abri guharbori va shijoat beshasining huzabr shikori, adolat chamanining sarvi sarbalandi va muruvvat ma'danining gavhari arjumandi, ko'shish razmgohining Rustami dostoni va baxshish bazmgohining Hotami zamoni, fasohat ilmining nukta birla sehrsozi va balog'at jahonining diqqat bila mo'jiza pardozi - Sulton us-salotin Abdulg'ozi Sulton Husayn Bahodirxon –

***Kim, mulki davomi to qiyomat bo'lsun,***

***Zotig'a bu mulk uzra iqomat bo'lsun,***

***Adl ichra tariyqi istiqomat bo'lsun,***

***Olam ahli uchun salomat bo'lsun". (MN.178)***

"Majolis" so'ngidagi bu "Xilvat" deb berilmish ikki lavha: Husayn Boyqaro huzurida o'tadigan adabiy anjumanlar (Navoiy "Oliy majlis" deydi) haqida, ularda yangi she'rlar, badiiyat masalalari muhokama qilinishi haqida tasavvur yaratib beradi. Birinchi lavhada Navoiy Xusrav Dehlaviyning hindcha she'rlaridagi bir ma'no yomg'ir rishtasining nozik yorga madad bo'lganligi haqidagi Lutfiydan eshitgan hikoyat va unga e'tiroz bildirgan Husayn Boyqaro mana bu bayt esa e'tiroz

uygʻotmaydi, deb bir baytni keltiradi. Bu bayt Husayn Boyqaro devonidan topilmadi. Uning Navoiy ilk devonidagi bir gʻazal tarkibida mavjudligiga bizning eʼtiborimizni prof. H. Neʼmatov tortdi. Faqat “Majolis”da “devorgʻa” soʻzi devonda “devorda” tarzida yozilgan. Ikkinchi lavhada esa hisorlik yosh shoir **Qabuliy** gʻazali bilan bogʻliq boʻlib, shoir sheʼrida chiqmay qolgan bir baytni Navoiy yozib bergani va Husayn Boyqaro bu xolni darhol payqagani haqida soʻz boradi. Bu lavha Husayn Boyqaro Navoiy sheʼriy uslubini naqadar puxta bilganligi, shuningdek, yosh isteʼdodlarga marhamatli boʻlganligidan dalolat beradi.

Tazkirani tarkibiy tuzilishini oʻrganish jarayonida bir qator qiziqarli maʼlumotlarga duch keldik. “Majolis un-nafois”da Navoiy hazratlari oʻzbek ayol shoiralari haqida ham maʼlumot bergan ekanlar. Masalan: Tazkiraning avvalgi majlisida Navoiy Mavlono Sulaymoniy haqida maʼlumot berganida, uning ayoli shoira **Mehri** haqida ham aytib oʻtadi. Mehri – XV asrning birinchi yarmida Hirotida yashagan shoira. Mehrining eri Xoja Abdulaziz Shohrux Mirzoning saroy tabibi boʻlgan, Mehri sofdil, ravshanfikir, isteʼdodli, shirinsuxan va hozirjavob boʻlgani uchun malika Gavharshodbeginning yaqin suhbatdoshi – nadimasi ekan. Tazkiralarda qariyb bir ovozdan Mehrining nihoyatda goʻzal boʻlganligi qayd qilinadi. Shoiraning bizgacha yetib kelgan sheʼrlari u yoki bu hayotiy voqealar munosabati bilan badiyona aytilgandir. Mehri fitna-fujurlar bois birmuncha muddat Shohrux tomonidan zindonband qilinadi. Lekin zindonda turib yaratgan isyonkorona sheʼrlari uni xalos boʻlishida muhim rol oʻynaydi. Navoiy keltirgan ikki bayt tazkiralarda berilishicha, Mehri qalamiga mansubdir. Shoira sheʼrlarida, dadil aytilgan fikrlar, aniq his-tuygʻular, alamli armonlar goʻzal badiiy obraz va vositalarda bayon etiladi:

*“Guftam az madrasa pursam sababi hurmati may,  
Dari har kaski, zadam bexudu loyaʼqil bud”. (MN.25)*

Tarj: Mayning xaromligi sababini madrasa ahlidan so'ray dedim, kimning eshigini qoqsam, (undagi kishi) hushsiz va uchib yotgan edi.<sup>16</sup>

“Va mashhur mundoqdurkim, bu ab'yot Mavlono Hakim tabibning xotuni Mehriningdur”. Bu bayt Hofiz g'azaliga nazira tarzida bitilgan. Navoiyshunos olimi, Professor Suyima G'aniyeva “Shoira Mehri” nomli maqolalari O'zbekiston madaniyati jurnalida 1966 yil, 9- may sonida bosilib chiqqan. Tazkiraning 4-majlisida Shayhzodai Ansoriy haqida ma'lumot bera turib, uning validasi **Bediliy** tahallusi bilan ijod qilganini aytib o'tadi: “Andoq zohir bo'lurkim, validasi ham xushtab'durur va “Bediliy” taxallus qilur. Go'yo bu matla' aningdurkim:

***Ravam ba bog'u zi nargisi du di davom kunam***

***Ki, to nazorai on sarvi xush xirom kunam.*** (MN.138)

Tarj.: Ul sarvning go'zal yurishini ko'rmoq uchun bog'ga boraman u nargis gulidan ikki ko'z qarz olaman..” Bediliy shoirlar haqida ma'lumot beruvchi tazkiralarda, jumladan Mogai Rahmoniyxonimning “Parda nishinoni suxango'y” (Parda ostidagi so'z san'atkorlari) nomli asarida Bediliy Hirotda anchayin ma'lum shoira bo'lganligi qayd qilinadi. **Mavlono Zeboiy** – shoirlar haqida ma'lumot beruvchi tazkiralarda Zeboiyning ayol shoira ekanligi ta'kidlanadi va Jomiy uni madh etgani bayon etiladi. Navoiy uni baytini eshitganligini aytadi: “Mavlono Zeboiy – faqir ani ko'rmaymen, ammo she'rin eshitibmen. Bu matla' aningdurkim:

***Qomatat shevai raftor chu bunyod kunad,***

***Sarvro bandai xud sozadu ozod kunad***”. (MN.107)

I bob bo'yicha olib borgan izlanishlarimiz quyidagi xulosalarga olib keldi ya'ni , Alisher Navoiy “Majolisun nafois” tazkirasini ilk marotaba 1491 yilda yozib tugallagan. So'ngra unga bir qancha aniqliklar kiritib, 1498-99 yillarda uning ikkinchi, qayta ishlangan nusxasini yaratdi, ayrim biografik noaniqliklarni bartaraf qildi. XVI asrning o'zida “Majolisun nafois”ning fors tiliga 3 marta tarjima

---

<sup>16</sup> *Алишер Навоий*. Асарлар. 15 томлик. 12- том. Мажолис ун-нафоис.45- б.

qilinganligi Movarounnahr, Eron va Turkiyada tazkiraga zo'r qiziqish bilan qaralganidan dalolat beradi.

Birinchi tarjima 1521-22 yillarda Hirotida Tahmasp shohning saroy shoiri Fahriy bin Sulton Muhammad Amiriy tomonidan qilingan. Ikkinchi tarjima Istanbulda 1522-23 yillarda tugallangan. Mutarjimi Muhammad Qazviniydir. Uchinchi tarjima taxminan 1598 yilda Shoh Ali Abdulali tomonidan Nishopurda Din Muhammad hukmronlik qilgan davrlarida bajarilgan. Tazkira sakkiz bo'limdan iborat bo'lib, Navoiy ularni "majlis"lar deb ataydi. Bularda Navoiy 459 ta shoir, turli xil kasb egalari bo'lgan ijodkorlar hamda oz bo'lsada o'zbek shoiralari haqida ma'lumot beradi. "Majolisun nafois" asari o'zbek tilida yaratilgan eng birinchi ham mukammal tazkira deya bimalol ayta olamiz. Tazkiranavislik an'alarida uning o'rnini beqiyosdir.

## II BOB. TAZKIRADAGI MAJLISLARNING BADIY TALQINI

### 2.1. Majlislarda keltirilgan adabiy tur va janrlar, she'riy parchalardagi badiiy tasviriy vositalar

Adabiyot taraqqiyotini ko'rsatuvchi eng asosiy belgilardan biri uning tarkibida ko'plab adabiy tur va janrlarning rivojlanib kengayishi va har bir adabiy turning muayyan mualliflar tomonidan atroflicha ishlanilishi, takomillashtirilishidir. "Majolisun nafois"da Navoiy har bir adabiy tur va unda ijod etib, ma'lum muvaffaqiyatga erishgan shoirlar haqida anchagina qiziqarli ma'lumotlar beradi. Navoiy o'z ijodida epik janrga katta e'tibor bergan. "Majolis un-nafois"da ham, shu janrda qalam tebratgan shoirlarni ko'rsatib o'tadi. Bular, avvalo, Abdurahmon Jomiy, Shayhim Suhayliy, Abdullo Xotifiy, Xoja Hasan Hizrshoh, Fasih Rumiy, Xoja Imod, Zova qozisi va boshqa masnaviygo'y shoirlardir. Tazkirada yuqorida nomlari keltirilgan shoirlarning masnaviylaridan bir-ikki bayt namuna keltirib o'tilgan<sup>17</sup>. Quyida biz ham ushbu an'anaga sodiq qolgan holda tazkiradan misollar keltiramiz:

**"Mavlono Kotibiy** - Va masnaviysida kecha borib kunduz kelur ta'rifida ham bu bir bayt aningdurkim:

***Shabpara az gunbazi feruzagun***

***Raft ba feruzai gunbaz darun.***

(Tarj.: Ko'rshapalak feruza rang gunbazdan gunbaz feruzasiga qarab ketdi.)

**Mavlono Ashraf** - Bu g'azal matlai dag'i aningdurkim:

***Xohamki, cho'bi tiyr shavam, to tu goh-goh***

***Bar holi man zi go'shai chashme kuni nigoh.***

(Tarj.: O'qning cho'pi bo'lishni istayman, toki sen ba'zi-ba'zida holimga ko'z uchi bilan qaragaysan. Bu yerda shoir o'q tortganda, ko'z qiri bilan nishonga boqishi kabi holatni nazarda tutmoqda.)

**Mavlono Ali Ohiy** – "Xayol va visol" otlig' kitobida bir bayti bor, magarkim, mulhimi g'ayb aning tiliga o'z she'ri bobida solg'ondurkim:

---

<sup>17</sup> *Фаниева С.* Мажолис ун-нафоис. Тошкент. 1966. 3- б.



***She'reki buvad zi nukta soda,***

***Monad hama umr yak savoda.***

(Tarj.: Nozik ma'nodan xoli she'r butun umr bo'yi bir qoralik bo'lib qoladi (yoki bir qoralama bo'lib qoladi).

***Xoja Imod*** - Masnaviysida xili rang va ziynat bor. "Layli va Majnun"ga tatabbu' qilibdur. Ko'p eldin yaxshiroq tushubtur va g'azal tavrida dag'i yaxshi tab'i bor:

***Burd sui lab zabonu shu'la zad bar joni man,***

***Kard zohir lam'ai az otashi pinhoni man.***

(Tarj.: Labiga til olib borib, jonimga alanga urdi; yashirin o'timdan shu'la zohir qildi.)

Ko'pincha bir-ikki jumladagina shoirga va uning ijodiga tanqidiy qiymat beriladi, shoir kimga va nimaga tatabbu' etganligi, u zamonda mavjud bo'lgan qaysi adabiy navga (g'azal, qasida, muammo va boshqalar) ko'proq qiziqqanligi va undagi mahorati qayd etiladi. Shoirdan bir-ikki bayt, yo biron qit'a, ruboiy, muammoni o'rnak tariqida keltirish bilan ta'rif tugallanadi. Tazkira ma'lumotlari bu davrda g'azal janri keng tarqalganligidan dalolat beradi. Bu janrda ijod qilgan shoirlar Kotibiy, Gadoiy, Lutfiy, Atoiy, Ozariy, Hofizi Sa'd, Binoiy, Hiloliy, Avhad Mustavfiy, Mashriqiy, Olim, Muhammad Ali Jaloyir, Nujumiy va boshqalar. Tazkirada muammo, ta'rix, masnaviy, qasida, g'azal, ruboiy kabi janrlar o'rin olgan. Bularni biz tazkiradagi misollar orqali ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Boshqa she'riyat turlaridan satira va yumor (Navoiy bu janrni zarofat, hajv, mutoyiba, hazil va mazoh deb ataydi) janrida Olim Said, Abdullo Astrobodiy, Jununiy, Mazhar, Sayyid G'iyosiddin, Shayhim Suhayliy kabilar qalam tebratganlar. Qasidanavislikda shoirlardan Ismatullo, Sohib Balhiy, Bobo Savdoiy, Ishqiy, Orifiylar, proza janrida esa (asosan tarixiy asarlar) Abdulvose', Mirhond, Xondamir va boshqalar ijod qilganlar. Qit'a, ruboiy, tuyuq kabi lirik janrlar haqida ham tazkirada ma'lumot beriladi. Muammo va maqlubi mustaviy kabi poetik turlarni shartli ravishdagina

adabiyotga kiritish mumkin. Zeroki, ularda shakl elementlari mavjud<sup>18</sup>. Lekin bu turlarning tarqqiy etganligining o'zi o'sha davrda badiiy mahoratga, shaklga qanday e'tibor berilganligi va u qanchalik yuksak darajaga yetkazilganligidan dalolat beradi. Ba'zi shoirlar bu turlarda o'zlarining badiiy mahoratlarini takomillashtirish va o'tkirlash maqsadida ijod etganlar - mashq qilganlar. Demak aytish mumkinki, bu turlardan yuksak maqsad yo'lida foydalanganlar.

**Muammo** – arabcha: yashiringan, berkitilgan demakdir. Muammo Sharq she'riyatida kichik lirik janr turlaridan biri. Misra', bir-ikki baytda (ba'zan jumla, ibora yoxud bir so'z ham bo'lishi mumkin) ism yoki biror so'z yashiringan bo'ladi. Muammoda esa unga murakkab imo-ishoralar bo'ladi. Muammoni maxsus qoidalarga asosan (unga ramz, imo, kinoya, o'xshatish, so'z o'yini, arab alifbosidagi harflar nuqtalarini almashtirish, so'zlarning boshqa tillardagi sinonimlarini topish, teskari aylantirish yoki "abjad" hisobi (harflarning raqam ma'nolari) va h. k. yo'llar bilan topib olish, yechish kerak bo'ladi. Muammoni tuzish va uni yechish qoidalariga bag'ishlangan maxsus risolalar ham yaratilgan. Ayniqsa, XV asrda muammo keng tarqalgan edi. Jomiy va Navoiy ham muammo haqida risolalar yozganlar. Tazkiraning 1- majlisida keltirilgan *Xofizi Sa'd*ning quyidagi baytlari muammo janriga misol bo'la oladi:

***Sari may nadoram madoru mayor,***

***Bimon Sa'dro bar sari ko'yi yor.***

Bu muammoda "Ahmad Mirak" ismi yashiringan. Asliyatda shunday yoziladi.

Tarj.: Men may istamayman, uni berma va tutma. Sa'dni yor ko'chasi boshig'a eltib qo'y. Birinchi misra'ning yana shunday mazmuni bor: so'z avvalidagi nadoram menda yo'q. Agar dan olib tashlasak, qoladi. Uning raqam ma'nosi 10, harflarda yoziladi. Bu ikki harfning raqam yig'indisi bo'ladi. 9 raqami yana birikuvidan hosil bo'ladi. Shunday qilib, "may" so'zidan "ah" bo'g'imini chiqardik. ni – "mad"ni ol, degan ishoraga binoan "Ah"ga "mad"ni qo'shsak "Ahmad" chiqadi. Dan "mi" olinadi. Yuqoridagidek ikkinchi misradan "Sa'dni qoldirib "ro"ni, ya'ni "r" harfini

---

<sup>18</sup> *Фаниева С. Кўрсатилган асар. 5- б.*

qo'y so'zining avvaliga, ya'ni, birinchi harfi oldiga olib borib qo'yiladi va "Mirak" hosil bo'ladi. Natijada ko'rsatilgan muammo yechimi "Ahmad Mirak" ismi chiqadi. Ko'rinadiki, muammoni yechish arab alifbosiga asoslanadi va uni tarjimasini berish bilan maqsad hosil bo'lmaydi. Shuning uchun muammolarni arab alifbosida berdik va tarjima qilmadik<sup>19</sup>. Mavlono Hoji Abulhasanga ta'rif berar ekan: *"Muammo fanida dag'i yaxshi erdi. "Boyazid" ismig'a bu latif muammo aningdurkim:*

***Har ki binad sarvi man boloi zeboi turo,  
Bar kanori didan ravshan kunad choi turo.***

To'rtinchi majlisda: *"Bu muammo "Doiy" ismig'a ham aningdurkim:*

***On sanamro ba oshiqi bedil,  
Omadu raft kay buvad, ey dil.***

deya Navoiy Xoja Yahyoga ta'rifini tugatadi. Oltinchi majlisda Hazrat: *"...nazm va insho va tarix va muammo fununida ham ishtig'ol ko'rguzur va "Malik" ismig'a bu muammo aningdurkim:*

***Dar miyoni har chiz ke on az avchi mah to mohi ast,  
Mazhar ismest gashta gar turo ogohi ast.***

Muammo ustalari "Majolisun nafois"da ko'plab keltirilgan: Sharafiddin Ali Yazdiy, Fazlulloh Abullaysiy, Muhammad Muammoiy, Muhammad Ne'matobodiy, Yusufshoh Badiiy, Sayfiy, Mirhusayn, Muammoiy, Shayhzodai Ansoriy, Arg'un, Muhammad Omiliy va boshqalar. Bu shoirlarga ta'rif berganda, Navoiy qariyb hamisha ularning muammo aytish va uni ochish qobiliyatini qayd qilib o'tadi va ko'pincha ular ijodidan namuna ham keltiriladi. Shunday tasavvur paydo bo'ladiki, Navoiyning o'zi ham bu janrga muhabbat bilan qaraydi, uni adabiyotning salbiy belgisi deb tushunmaydi. Muammoga bag'ishlangan birinchi asar 1392 yilda yozilgan "Ih'yo fil ilmi hal al-muammo" (Muammoni yechish ilmining jonlantirilishi) deb atalgan va Badi' Tabriziy degan tojir qalamiga mansubdir. Ikkinchi majlisni boshlab bergan Sharafiddin Ali Yazdiy bu janrga bag'ishlab "Hulal" yoki "Hulali mutarraz"

---

<sup>19</sup> Ўша асар. 12-б.

nomli asar yaratgan va u muammoni tuzish, uni yechish yo'llaridan bahs etuvchi nazariy asar hisoblanadi.

**Ta'rix** – adabiy janr turlaridan bo'lib, unda abjad hisobi usullarini tatbiq etish bilan biror muhim voqea, ulug' kishilar vafoti, binolarning bunyod etilishi vaqti va h. k. lar yilini yozib qoldiriladi. Ta'rix yaratuvchilarni ta'rixgo'ylar deyiladi. Ta'rix she'r bilan aytilsa, g'oyat munosib sanaladi. Mavlono Navoiy o'z tazkirasining avvalgi majlisida *“Shayxning vafoti ta'rixin “Xusrav” lafzi topibdur. Bu faqir Mavlono To'ti Tarshiziy favtig'a “Xo'rus” lafzi tarix topib erdim, ma'lum bo'lurkim bir tarixda o'tubdurlar”*. Ta'rix moddasi bo'lgan so'z, misra', baytlar arab harfida yozilib, abjad hisobi bilan chiqarilishini e'tiborga olib, ta'rix moddasi bo'lgan so'zlarni arab alifbosida keltirdik: *“Xusrav”* so'zidagi harflar abjad bo'yicha yig'indisi 866 y. (1461-62) *“Xo'rus”* so'zidan ham shu sana chiqadi<sup>20</sup>.

Avvalgi majlisda Mir Islom G'azzoliy haqida ma'lumot bera turib, ushbu janrga misol sifatida bayt keltiradi:

“Ma'lum bo'lurkim, Alouddavla Mirzo madhida aytibdurkim, har bayti boshtin oyoq ulzamonning bir ta'rixidur va ul qasida matlai budurkim:

***Shohidi ichlolro be mulki u nabvad libos,***

***Balki ichlol az chaloli u kunad machd iltimos”.***

Bu qasida matla'ining birinchi misra'ida abjad hisobi bilan 849 (1445-46) berilgan, ikkinchi misra'idan ham xuddi shu ta'rix chiqadi.

Ikkinchi majlisda Sayid Kamol Kachkul ta'riflanganda: “Ammo ulcha faqir ko'rdum, Hazrat Xoja Abu Nasr Porso (quddisa sirruhu) favt bo'lg'onda marsiya aytib erdikim, necha baytining har misrai Xoja favtig'a tarix erdi va necha bayti mustag'raq tarix erdi, va necha bayti har bayt uch va to'rt tarix erdikim, bayt ma'nosig'a futur yo'l topmaydur erdi. Bu ishlar bashar savhidin tashqari uchun ani derlar erdikim, Atorudni istixroj qilibdur.” «Majolis» tarjimoni Muhammad Qazvinii Navoiyning bu so'zlarini tarjima qilar ekan, xuddi shunday ta'rixli qasidani Navoiy vafotiga uning yaqin do'stlaridan Sohib Doro yozganligini ilova qiladi va har

---

<sup>20</sup> Ўша асар. 26- б.

baytning birinchi misraidan “abjad” hisobida shoirning tug‘ilgan yili va ikkinchi misraidan vafoti sanasi chiqadigan qasidadan birinchi baytini keltiradi. “Bu ishlar bashar savhidin tashqari uchun ani derlar erdikim, Atorudni istixroj qilibdur”. Bu yerda Navoiy shoirning ta’rixli qasidasining yuksak ta’rifini berib, uning iqtidoriga qoyil qolganini bildiradi va zamondoshlarini shoir, yozuvchilar homiysi, Atorud, (Merkuriy) aql, iste’dod qudratining ramzi sanalgan sayyorasini go‘yo u kashf etgan, degan mubolag‘ali e’tirofni keltiradi. Uchinchi majlisda Navoiy kabudjomalik bo‘lgan Mavlonoh Sohib haqida xabar beradi, Sohib Navoiy vafotiga marsiya ta’rix yozganini xabar qiladi. Muhammad Qazvinii esa Sohibning insho fanida mohir bo‘lganini qayd etadi va Navoiy bilan Sohib oralarida bir safar asnosida, bo‘lib o‘tgan hazl-mutoyibani keltiradi hamda abjad hisobida har baytning birinchi misrasidan Navoiyning tug‘ilgan yili ikkinchisidan vafoti yili ta’rixini chiqadigan qasida marsiyasini beradi. Bu qasida har bandi 8 baytli 5 banddan iborat bo‘lib, shunday boshlanadi:

***Ey falak, shu yanglig‘ bedodlig‘ va berahmlik qilding.***

***Vey ajal, jahon mulkini vayron qilding.***

Birinchi baytdan 844 (1441), ikkinchisidan 906 (1501) kelib chiqadi.

Faxriy yana uchinchi majlisda ta’riflangan Osafiyning Navoiy vafotiga yozgan marsiyasidan bir bayt tushirgan quyidagi ta’rixini keltiradi:

***On Miri balandqadr, oliy rutbat,***

***Chun kard az in jahon ba jannat rixlat,***

***Az soli vafotu joyi u pursidam,***

***Dodand javobi manki, jannat, jannat!***

Tarj: Yuksak qadrli [va] oliy martabali ul (A) Mir bu jahondan jannatga ravon bo‘lganida, men vafot yili bilan uning joyini so‘radim. Menga “Jannat, jannat” – deb javob berishdi - so‘zlaridan “abjad” hisobida Navoiyning vafoti yili 906 (1500-1501) chiqadi.

Tazkira ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Navoiy o‘z davri adabiyotida barcha janrlarning taraqqiyoti xususida qayg‘urgan. Lekin shuni qayd etmoq lozimki,

Navoiy bu asarida o'z davri adabiyotining g'oyaviy mazmuni haqida to'la ma'lumot bermaydi. Zotan buni u o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ham emas. U asar muqaddimasida ta'kidlab o'tganidek shoirlardan "...har qaysining natoyiji tab'idin biror nima nishona yo'sunluq" keltirishnigina ko'zda tutgan edi. To'rtinchi majlisda Mir Ixtiyoriddin haqida aytganda: "El tilidin qutulg'on kishi yo'qtur va «Poi Hisor» havzi tuganganida bu tar'ixni xub aytibdurkim:

***Havzeki, chu xoham az safoyash go'yam,***

***Sad bor dahan ba obi hayvon sho'yam***

***Har chandki, hast manbaash chashmai***

***Xizr, Ta'rix vey az jo'yam".***

misralarini keltiradi. Tarj.: Bu havzning tozaligidan so'zlamochi bo'lganimda, og'zimni yuz marta obi hayot bilan yuvaman. Har chandki, Xizr chashmasi bo'lsa ham ta'rixini "Kavsar soqiysi"dan axtaraman. She'rning ta'rix moddasi iborasi bo'lib, abjad bo'yicha 897 (1486-87) chiqadi. "Poi Hisor" deb atalgan havz ana shu yilda bitilgan ekan. Xoja Mahmud ta'riflanganda esa quyidagi baytni keltiradi:

***"Chun usuli shash qalam kardam raqam,***

***Gasht tarixash "usuli shash qalam".***

Bu ta'rix moddasi iborasi bo'lib, abjad qoidasiga binoan 897 (1491-92) chiqadi.

"G'azal mulkning sultoni" Alisher Navoiy ayni paytda nasr mamolikining xoqoni ham edi<sup>21</sup>. Sharq ijodkorlariga oid asarlarda nasr va nazmda qo'llanilgan badiiy san'atlarning 120 xili ma'lum. Ana shu san'atlar uchga bo'linadi:

1. Lafziy;
2. Ma'naviy;
3. Mushtarak.

Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida badiiy san'atlar keng qo'llanilgan. Quyida ulardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

---

<sup>21</sup> *Шайхзода М.* Навоийнинг фалсафий қарашлари ва поэтик маҳорати ҳақида. Тошкент. 1978. 83- б.

**Maklubi mustaviy** – she’riy san’at bo’lib, biror jumla yoki biror misra’ she’rni o’ngdan ham, chapdan ham bir xil o’qiladigan qilib tuziladi. Navoiy “Majolis un-nafois”ning ikkinchi majlisida Mavloni Abdulvahob haqida ayta turib, ushbu janrga to’xtalib o’tadi: “Ul zurafodin biri “maqlubi mustaviy” san’atida “murode doram” alfozin topib qoziga arz qilibdur. Ul oz taammul bila “baroyad yorab” alfozi bila javob beribdurkim, bu ishi ta’rifdan tashqaridir.”Murode doram (murodim bor) va – baroyad yorab (Iloho yetilgusi) so’zlari har ikki tarafdin bir xil o’qiladi. To’rtinchi majlisda Xoja Kamoliddin Udiy haqida ma’lumot bera turib, ushbu baytni maklubi mustaviy san’atiga misol qilib keltirgan:

***“Namexoham zi dida bar ruxat oyinae sozam,***

***Zi mujgon bahri zulmat anbaroso shonae sozam”.***

**Sa’j** – o’z xususiyatlari jihatidan ma’naviy-lafziy san’at hisoblanadi. Chunki u muayyan asardagi mazmunni yorqin ifodalabgina qolmay, balki nozik so’z o’yinlari, ifodaning ohangdorligini ta’minlashda ham muhim rol o’ynaydi. “Sa’j” so’zi arabcha bo’lib, lug’aviy ma’nosi jihatidan xushovoz qushlar tovushining bir-biriga qo’shilib, jo’r bo’lib ketishini anglatadi. Dastlab bu termin turkiy xalqlar adabiyotida Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’atit turk” asarida qo’llanilgan. Sa’j san’ati tazkiraning hamma o’rinlarida qo’llanilmay, balki asarning boshlanishida, majlislar sarlavlahasida, har bir majlisning xotimasi hamda sakkizinchi majlisda uchraydi. Asarning boshlanishida hissiyotlilik bir qadar yuqori bo’lib, uning aksariyat jumalari zanjirga o’xshab sa’jlangan so’zlardan iborat. Bunday hol o’rta asr Sharq xalqlari nasriy asarlari uchun an’anaviy holat hisoblanadi. Navoiy ham qisman shu an’ana talablaridan kelib chiqib, o’z tazkirasining kirish qismini sa’jlaydi. Kirish qismidagi sa’jlanish tartibi murakkab bo’lib, bir jumla tarkibida sa’jning 3 turini ham ko’rish mumkin. Masalan: “Bas nazm ilmi *qoyillari* va she’r fani *komillarikim, daqoyiq durri pokining bahri ummoni* va *maoniy la’li otashnokining koni bo’la olg’anlar*, bas sharif xayl va aziz qavm *bo’lg’aylar*, bu jihatdindurkim, alarning *nomiy otlari* va *iromiy sifotlari zamon sahoyifidin* va *davron safoyihidin* mahv bo’lmasun deb *tasnif ahli ta’liflarida* va *ta’lif xayli tasniflarida fusuli orosta* va *abvobi piyrosta* qilibdurlar va

o'z kitobatlarig'a bu jamoat zikridin zeb *beribdurlar*". Keltirilgan misolda to'liq qofiyali va vazndosh sa'j zanjirga o'xshab qo'llanilgan va ular ko'proq Navoiy bayon qilayotgan oliyjanob himmatni ham ravon, ham ko'tarinki ruhda ifodalashga xizmat qilgan<sup>22</sup>. Chunki she'r fanining komillari, maoniy javohirlarining koni bo'lgan va asosan Navoiy tan olgan shoirlarning nomi keyingi avlodlarga ham ma'lum bo'lib qolishi uchun mazkur tazkira bitilgan. Shunday ekan, Navoiydek iqtidorli shoirning o'z tazkirasi oldiga qo'ygan vazifa va maqsadni ko'tarinki poetik shaklda bayon qilmasligi mumkin emas. Agar yuqorida keltirilgan jumladagi sa'j nisbatini statistik yo'lda tekshirmoqchi bo'lsak, quyidagi holni ko'ramiz. Jumladagi mustaqil so'zlar miqdori 56 ta bo'lib, ulardan 37 tasi sa'jlangan. Sa'jlanuvchi so'zlarning sa'j turlariga nisbatan taqsimlasak, quyidagicha nisbatni tashkil etadi. To'liq va vazndosh sa'j – 29, qofiyali sa'j – 8, sa'jlanmagan so'zlar esa – 19 ta. Demak, jumlani tashkil etgan so'zlarning 71 foizi sa'jlangan. Bundan ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy sa'j qo'llashda va shu orqali o'z fikr tuyg'usini ravon ifodalashda benazir bo'lgan. Navoiy o'z tazkirasining boshlanishida faqat o'sha davr an'anasidan kelib chiqibgina sa'jga bu qadar murojaat qilmagan. Balki uning nazarida eng birinchi navbatda ehtiros hamda iliq tuyg'ular bilan to'lib-toshgan fikr turadi. Ana shu fikrni ta'sirliroq qilib o'quvchiga yetkazish, o'zidagi alangali tuyg'ularni, jo'shib turgan hissiyotni o'quvchiga ham yuqtirish ehtiyojidan kelib chiqib sa'j san'atiga ko'proq o'rin beradi. Yuqoridagidek sa'j qo'llash har bir majlisning xotimasi uchun xosdir. Masalan, uchinchi majlisning xatmida: "Bu hazratkim, bu majlis ahlining *sadrinishinidurlar* sahobi maoniylari *gavharrez* va bu jamoatkim, ul hazrat xirmanini maoniysining *xushachinidurlar*, gulshani tab'lari gulafshon va *sumanbez*, sarxaylg'a vusuli *ilohi yetsun* va xaylg'a sharafi saodat va mag'firati nomutanohi *kasib etsun*. Va Sultoni sohibqironkim, ul hazratning nukot va maorifining *daqoyiqi* alfozini va *haqoyiqi* maoniysini hech donishvarlardin yaxshiroq bilmadi va hech ahli tab' alarning ushri ashirini fahm qilmadikim, majlisda nazm tariyqida *hamroz* erdilar va nasr uslubida *puktapardoz*. Ul hazrat ruhoniyyatidin alarg'a fayzi *beg'oyat* va imdodi *benihoyat*

---

<sup>22</sup> Сапирсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. Тошкент. 1978. 104- б.



yetsun va bu faqir hamkim, bu hazratning bandai dargohi va ul hazratnning xoki rohimen mahrum bo‘lmasun”. Yoki oltinchi majlisning nihoyatida: “Bu balog‘at maob va fazoyil intisoblardin ham birori, agar zamon sahifasida o‘z nazmlari savodidek *mavjuddur*, ammo aksari zamona vafosidek *nobuddur* va podshohlari ham fano mahallidin *ketibdurlar*, baqo sarmanzilig‘a *yetubdurlar*. Va filhaqiqat, Sultoni sohibqironning qarobat va tavobiidin erurlar ham modihlari, haq taolo lutfidin *ma‘zur* va ham mamduhlari ruhi ravzai rizvonda *masrur* va *mabrur* bo‘lsun”. “Majolis un-nafois”ning har bir majlisi so‘nggidagi xotimalarni hisobga olmaganda, birinchi olti majlisda sa‘j juda kam qo‘llanilgan. Bayon asosan erkin nasrda boradi. Bu narsa muallifga o‘z fikrlarini, estetik qarashlarini juda ixcham, siqiq ifodalashda qo‘l kelgan. Tazkiraning yettinchi majlisi Temur va temuriy shoirlarga bag‘ishlangan, unda ham qisman bo‘lsada, sa‘j uchraydi va uning xarakteri asar boshlanishidagi sa‘j xarakteridan farqlanmaydi. Masalan: “Bu oliyjoh podshohlar va anjumsipoh falak dastgohlardin avvalg‘i Jamshid va Faridun monand ota bila farzandg‘a so‘ngg‘i *avlod* va *axfod* va amjodqa falak Jamshid bila Faridung‘a ichirgandek, ayog‘i *ichurdi* va vujud bazmgohidin *surdi* va adam faromushxonasig‘a kiyurdikim, dunyoda haq taolo alarni shohi taxtgir qilg‘ondek oxiratda ham muqarrabi dargoh va arshi sarir qilg‘ay. Va alarning mulku taxt va saltanatin va toju sipoh va hashamatini alarg‘a vorisi *barhaq* va mulkka horisi *mutlaq*, ya‘ni Sulton Sohibqirong‘a musallam *tutg‘ay* va ruhlarining sham‘in ham o‘z o‘chog‘lari shu‘lasi bila *yorutg‘ay* va soyir shohzodalar dag‘i bu davlatdin *bahramand* va shoh inoyatidin *sarbaland* bo‘lg‘aylar.” Sakkizinchi majlis Sulton Husayn Mirzoga bag‘ishlanib, majlisning boshlanishi va xotimasida sa‘j va vaznli nasrdan unumli foydalanilgan. Nasrning bu ikki murakkab turini birgalikda qo‘llashga sabab – Navoiy o‘zi hurmat qilgan iste‘dodli shoir Sulton Husayn Boyqarodek shaxsni ta‘rif va tavsif qilishda ko‘tarinki uslub kerak edi. Mana shu talab va ehtiyojdan kelib chiqib, Navoiy nasrning bu ikki turidan mohirona foydalanadi. Masalan: “Saltanat bahrining durri yaktosi va xilofat sipehrining xurshedi jahonorosi, saxovat havosining abri guharbori va shijoat beshasining huzabr shikori, adolat chamanining sarvi sarbalandi va muruvvat ma‘danining gavhari

arjumandi, ko'shish razmgohining Rustami dostoni va baxshish bazmgohining Hotami zamoni, fasohat ilmining nukta birla sehrsozi va balog'at jahonining diqqat bila mo'jiza pardozi - Sulton us-salotin Abdulg'azi Sulton Husayn Bahodirxon ...” Misoldagi uchta mustaqil so'z (hurshedi, ilmining, jahonining) dan boshqa hamma so'zlar sa'jlangan. Agar sa'jlanuvchi jumlalarni o'zaro muqoyasa etsak, uning izchil ritmga ega ekanligini, bu ritm esa sa'jlanuvchi ritmik guruhlarining o'zaro hamvazn ekanligidan dalolat beradi<sup>23</sup>. Masalan: “... saxovat havosining abri guharbori ... adolat chamanining sarvi sarbalandi... ko'shish razmgohining Rustami dostoni ... baxshish bazmgohining Hotami zamoni...”va hokazo. Jumlalarning o'zaro sa'jlanishi va vazn jihatidan nisbiy teng bo'lishi bayonga ravonlik, ohangdorlik va ko'tarinkilik baxsh etgan.

**Tarse'** san'ati — badiiy san'atlardan. She'rda birinchi misra' so'zlari bilan ikkinchi misra'so'zlarining bir-biriga ohangdosh, vazndosh va qofiyadosh bo'lib kelishidir. Ikkinchi majlisda Navoiy Sabzavorlik Darvesh Mansur haqida ayta turib tarse' san'atiga misol keltiradi: “Ikki aruz tasnif qildi va masnu' qasida aytibdurkim, matlai budurkim:

***Bas davidam dar havo'i vasli yor,***

***Kas nadidam oshnoi asli kor.***

Tarse' san'ati pokiza voqe' bo'lubdur.”

Navoiy Husayn Boyqaroning baytlaridan misol keltirganda ushbu san'atga ham murojaat qilgan: “Lom” harfi:

Safar azmida musofiridin ayrilur chog'da xayrbod mazmunluq alfozni radif qilib aytqon she'rning matlai furqatnamo kelibdur va anduhoso aytilibdur:

***Oh ila-azm ettim, ey rozimg'a mahram, yaxshi qol,***

***Dard ila ayrildim, ey dardimg'a marham, yaxshi qol.***

Bevafosi ko'yida ko'ngliga maskan qilmog'ini targ'ib qilmog'i xub va yig'lab holini ado qilurda shevan qilmog'ini ta'lim bermaki marg'ub:

***Ey ko'ngul, ul bevafo ko'yida maskan aylagil,***

---

<sup>23</sup> Ўша асар. 105- 6.

***Zor yig‘lab, sharh etib, holingni shevan aylagil.”***

“***Tajohil ul-orif***” she‘riy san‘at bo‘lib, lug‘aviy ma‘nosi bilib bilmaslikka olishlikni anglatadi. She‘riyatda shoir iztirobli, hayajonli lahzalarda o‘zi o‘ziga savol berib, javobda fikrlarini yanada teranlashtiradi, adoni ta’sirliroq qiladi.

“Manzurning labi tabassumini va o‘zini qonalg‘on dog‘ini g‘unchai xandon va lolai No‘mong‘a tashbih qilibdur va ma‘nisi she‘r sanoeidin «tajohil ul-orif» uslubida xush voqe‘ bo‘lubtur:

***Ayladi la‘li tabassum, g‘unchai xandon emas,  
Dog‘ini ko‘nglum qonatti, lolai no‘mon emas.”***

Bu baytda shoir yorning tabassumini g‘unchaning ochilishi emas, loladagi dog‘ emas uni mening ko‘nglim qonatdi der ekan, ana shu san‘atning bir ko‘rinishini namoyon etadi.

***Tardi aks*** san‘ati – teskari qilib takrorlash ma‘nosini ifodalab, she‘rning birinchi misrasida keltirilgan ikki so‘z yoki so‘z birikmalarini keying misrada o‘rni almashtirib qaytarishdan iborat bo‘lgan she‘riy san‘atdir. Bu xil qaytarish natijasida mazkur so‘z yoki so‘z birikmalari yana bir bor ta’kidlanibgina qolmasdan, ularning ma‘nosi ham yangilanadi, misra mazmuni ham takomillashdi. Tazkiraning ikkinchi majlisida Navoiy Mirzobekka quyidagicha ta’rif beradi va ushbu san‘at qo‘llanilgan baytini keltiradi:

“...Tab’ va fahm va otaru tutarda bu ikki mulk yigitlari orasida saromadi zamona bu nav’ ta’riflardin mustag‘niy. Bu matla’ aningdurkim:

***Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur,  
Kim jonga qaro balo bo‘lubtur.***

Zulqofiyatayndur va qofiyalari tardi akskim, javob aytmoq bu faqir qoshida maholatdindur. Agarchi aning tiliga bu nav’ abyot ko‘p o‘tar erdi, ammo hargiz parvo qilib bir yerda bitimas erdi. Bu matlain faqir tugatib aning yodgori devonda bitibmen”. Ushbu baytda “balo qaro” hamda “qaro balo” so‘zlari takrorlanib kelgan.

***Talmeh san'ati.*** “Ishqdin boshig‘a kelgan suubat sharhida takallum ko‘rguzmak va Farhodu Majnun o‘l suubatni xayol qila olmaslig‘ida tarannum tuzmak majnunvor va farhod-osor kelibdur:

***Ishqdin keldi mening boshimg‘a oncha sa‘b hol,***

***Kim, oni Farhod ila Majnun qila olmas hayol.”***

Bu baytda Husayn Boyqaro she‘r san‘atidagi “***talmeh***” (lug‘. ma‘nosi: yashin chaqnashi, ko‘z qirini bir narsaga daf‘atan qaratish demakdir)ni ishlatgan. Bu san‘atda tarixiy shaxslar, voqea, qissa, afsonalarga va ulardagi personajlarga ishora qilmoqni anglatadi. Baytdagi Farhod va Majnunlar ana shunday qahramonlardandir. Yana bir baytida xuddi shu san‘at ishlatilgan: “Mahzun ko‘ngulning yorsiz devona bo‘lmog‘ining uzri va ul hajridin Vomiq va Majnundek rasvoliqa afsona bo‘lmog‘ining ma‘zirati:

***Yorsiz mahzun ko‘ngul devona bo‘lmay naylasun,***

***Vomiqu Majnun kibi afsona bo‘lmay naylasun?”***

yoki quyidagi baytda ham qo‘llanilgan:

“Bu matla’ ham manzurini husn yuzidin Shirin va Laylig‘a va o‘zin ishq bobida Farhod vaMajnung‘a tarjih qilibdur. Bu nav’ oz eshitilibdur:

***Husn ila sen komilu Shirinu Layli shuhrati,***

***Ishq aro men zor o‘lub, Farhodu Majnun tuhmati”.***

Bu baytda ham “talmeh” san‘ati ishlatilgan. Vomiq — “Vomiq va Uzro” nomida 20 dan ziyod dostonlar mavjud. Asli yunonga borib taqaluvchi bu turkum dostonlardan ilk namunalar VI asrlarda uchraydi XI asrda fors shoiri Unsuriy «Vomiq va Azro» nomli doston yaratgan (Vomiqning ma‘nosi do‘stlashuvchi, do‘sti borni anglatadi, Azro esa bokira ma‘shuqa deganidir). Keyinchalik ko‘p shoirlar shu nomda doston yaratganlar. Bu dostonlarning mazmunida farqlar oz bo‘lib, faqat birida Vomiq Yaman shohining o‘g‘li, Uzro Hijoz hokimining qizi, boshqasida esa turli mamlakatlar hukmronlarining farzandlari sifatida qalamga olinadi. Yoki quyidagi bayt ham misol bo‘la oladi: “Majnunni ishq tariyqida o‘ziga o‘xshatmoq va devonalig‘

rasmin anga o'rgatmak kamoli oshiqliqqa va devonaliqqa doldur va ishq va junun ahlig'a bu nav' bas bul'ajab holdur:

***Ishq aro Majnunni dermenkim, o'zumga o'xshatay,  
Hushini zoyil qilib, devonalig'ni o'rgatay".***

Yana Navoiy hazratlari quyidagi baytdagi san'atni yuksak ixtiro deb baholaydi.

"Bu she'rning qofiyasidin so'ngra atf vovin kalimaning asli harfi o'rnig'a tutulub g'arib ixtiro' qilibdur:

***Ey jaf o' tig'i, kelib majruh ko'ksumni yoru,  
Qo'l yalang aylab solib haryon ichimni axtaru."***

"Bu she'rning qofiyasidan so'ngra "atv vovin" kalimaning asl harfi o'rnig'a tutulib, g'arib ixtiro' qilibdur" — "atv vovi" "va" bog'lovchisini anglatadi. Baytda shoir "ey jaf o' tig'i, kel va majruh ko'ksumni yor" deyish o'rniga "va'ni yor so'zidagi asosiy harflarga tutash yozgan. Navoiy buni ajoyib ixtiro' deb baholaydi. Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devonida xuddi shunday san'at ishlatilgan g'azal bor bo'lib, matla'i shunday:

***Ey sabo, ovvora ko'nglum istayu har yon boru,  
Vodiyu tog'u biyobonlarni bir-bir axtaru*<sup>24</sup>.**

Adabiy jarayonning sinchkov kuzatuvchisi, she'riyat nazariyasining beqiyos bilimdoni Navoiyning "Majolis un-nafois" majlislarida ta'riflangan shoirlar ijodidagi adabiy tur va janrlar, badiiy tasviriy vositalar "ko'p va xo'b" qo'llanilgan bo'lib, biz ulardan asosiylarigagina to'xtatilib o'tdik.

## **2.2. Tazkirada Navoiyning badiiy so'z san'ati hamda adabiy-tanqidiy qarashlari**

Alisher Navoiy buyuk olim sifatida o'z tazkirasida talay shoirlar ijodini tahlil qilish bilan bir qatorda, umuman adabiyot nazariyasi, xususan she'riyat muammolarini o'rta tashlaydi va hal qilib o'tadi. Navoiy o'sha davr madaniy hayotining asosiy muammolaridan hisoblangan shakl va mazmun masalalarini diqqat markaziga qo'yadi. U badiiy asarlarning shakli va mazmuni haqidagi ilg'or fikrlarni

---

<sup>24</sup> Рустамов А. Навоийнинг бадий махорати. Тошкент. 1979. 25- б.

himoya qiladi, shaklning mazmundan ustun qo'yilishiga qarshi chiqadi. Shuning bilan birga, u shaklni mensimaslikka qarshi chiqadi, shakl mukammalligini katta san'atning juda muhim belgisi deb hisoblaydi. Navoiy, umuman, biror- bir shoirga xarakteristika berishda faqat asarning g'oyaviy mazmunigagina emas, balki uning badiiy mahoratiga ham alohida e'tibor beradi. Xuddi shu asosda shoirning tutgan o'rnini belgilovchi umumiy xulosalar chiqaradi. Navoiy fikrlarini diqqat bilan o'rganish shuni ko'rsatadiki, uningcha, poeziya, umuman adabiyot yuksak, badiiy shaklsiz kishi ko'z oldiga keltirish qiyin bo'lgan haqiqiy madaniyatning bir qismidir. Agar asarda g'oya, shakl birligi va bu birlikda g'oya yetakchiligi ta'min etilmasa, bunda asarning qiymati bo'lmaydi. Navoiy "Hayrat ul-abror"da:

***"Nazmda ham asl anga ma'ni durur,***

***Bo'lsun aning surati har ne durur."***

Degan fikrini "Majolis"dagi Ali Ohiy degan shoirga bergan ta'rifida faktik ma'lumot asosida yana ta'kidlab o'tadi:

**"Mavloni Ali Ohiy** – Mashhaddindur. "Xamsa" muqobalasida necha masnaviy aytibdurkim, chun muqobalag'a keltursa, go'yoki bo'lmas. Ul jihatdin shuhrat tutmaydur. "Xayol va visol" otlig' kitobida bir bayti bor, magarkim, mulhimi g'ayb aning tiliga o'z she'ri bobida solg'ondurkim:

***She'reki buvad zi nukta soda,***

***Monad hama umr yak savoda".***

Tarjimasi: She'r nozik (yaxshi) ma'nodan xoli bo'lsa, butun umr bo'yiga bir qoralik bo'lib qoladi.

Navoiy "Majolis un-nafois"da badiiy asarlarni tahlil qilish vazifasini o'z oldiga qo'ymaydi. Zotan, tazkirachilik an'anasi buni talab ham qilmas edi. Lekin shunga qaramay "Majolis un-nafois"dagi muhim adabiy-tanqidiy mulohazalar XV asr adabiyotini, uning bir qator namoyondalari ijodini yoritishga yordam qiladi. Tazkira muallifi ko'pgina shoirlarning badiiy adabiyotda tutgan o'rnini ko'rsatishga, ularning badiiy ijodiyotini baholashga va asarlari uchun xos bo'lgan xususiyatlarini yoritishga intiladi. Biroq u ba'zan ayrim yozuvchilar ijodining ma'lum bir tomonini yoki

ma'lum bir asarini, hatto ma'lum bir parchasini ko'zda tutib fikr yuritadi. Ayrim o'rinlarda esa ba'zan yozuvchilar haqida ma'lumot beradiyu lekin ularning ijodi haqida fikr yuritmaydi yoki uchinchi bir kishining mulohazasini bayon etish bilan kifoyalanadi, chunki adabiyot ahllari ahqida obyektiv va haqqoniy fikr yuritish shuni taqozo qilar edi. Navoiy 459 shoirning barcha asarlarini to'plash va o'rganishga ulgura olmagan edi. Zotan Navoiy yashagan davrda buni amalga oshirish ham amri mahol edi. Navoiy ne-ne mashaqqatlar bilan ayrim yozuvchilarning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot to'plagani, asarlardan namunalar yiqqanini "Majolis un-nafois"ning bir necha o'rnida qayd qiladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Navoiy har bir yozuvchi ijodiga aniq yondashadi, yozuvchining yutuq va kamchiliklari haqida ham aniq xulosalar chiqaradi. Shuningdek, Navoiy shoir kamchiligini ko'rsatibgina qolmay, yo'l qo'yilgan xatolarni o'zi mahoratli shoir sifatida tuzatib beradi.<sup>25</sup>

Navoiy **Riyoziy** degan shoirga ta'rif berib, uning ijodidan bir baytni namuna uchun keltiradi:

***Sitoraist duri go'shi on hilol abru,***

***Zi ruyi husn ba hurshid mezanad pahlu.***

Bu baytda misralar bog'lanishi uchun bog'lovchi zarurligini ta'kidlab, Navoiy quyidagi variantni taklif etadi:

***Zi ruyi husn duri go'shi on hilol abru,***

***Sitoraistki, bo moh mezanad pahlu.***

Hech shubhasizki, Navoiy taklif etgan variantda bayt misralari o'zaro bog'langanidan tashqari, she'rdagi o'xshatish haqiqatga monand keladi. Riyoziyning variantida yulduz quyosh yonida, Navoiy variantida esa yulduz oyning yonida tasvirlangan. Lekin Riyoziy bu tanqidiy tuzatishni qabul qilmaydi, Navoiy yozadi: "Insof yuzidin kerakki, musallam tutsa erdi, jadal bunyod qildi (asoslamoqchi bo'ldi – S.G'.), faqir soqit bo'ldum. O'z yoronlari talashtilar ham qabul qilmaydi". Riyoziyning xolis va foydali tanqidga bu xil munosabati uning xarakteridagi

---

<sup>25</sup> *Фаниева С. Кўрсатилган китоб. Тошкент. 1966. 26- б.*

takabburlik, manmanlik xususiyati bilan izohlanishi ham mumkin. Har qalay, Navoiy Riyoziy haqidagi ma'lumotlarni uning "mutakabbir va mu'jib kishi" ekanligidan boshlaydi. Bu ma'lumot shundan dalolat beradiki, navoiy ijodkor shaxsiyati bilan u yaratgan asarlar orasida umumiylik, bog'liqlik ko'radi.

Navoiy she'ning g'oyaviy mazmuniga ham, badiiyligiga ham katta e'tibor beradi. U she'rdagi juz'iy nuqsonlarni ham tanqid qiladi. Masalan u shoir Atoiy ijodiga yuksak baho beradi. Lekin uning:

***"Ul sanamkim suv yaqosinda paridek o'lturur,  
G'oyati nozukligidin suv bila yutsa bo'lur".***

baytida "o'lturur" so'zi bilan "bo'lur" so'zini qofiya qilgani uchun qofiyasida "aybg'inasi bor" deb ta'kidlaydi.

Tazkirada Navoiy qator shoirlarning she'rlarini ma'nosizligi, mantiqsizligi, g'oyasizligi uchun tanqid qiladi. U Qobiliy degan shoir haqida uning she'rlarini "hech mazasi yo'qtur" deb yozadi va uning ijodidan bu fikrni tasdiqlovchi quyidagi misolni keltirib o'tamiz:

***"Ajab navbad bu lutfi arzon ki binavozi g'aribonro,  
Navozish z-onki rasmu odati xubast xuboiro".***

Tarjimasi: Arzon lutf-marhamat qilib, g'ariblarni yo'qlab qo'ysang yomon bo'lmasdi, chunki marhamat (ko'rgazish) go'zallarning go'zal odatidir. Go'zal mahbuba marhamatini arzon deyish, buning ustiga yorning o'z oshig'iga lutf qilishini oddiy odat hisoblash mumtoz adabiyotimizdagi dunyoviy ruhda yozilgan she'rlar talabiga aslo mos kelmaydi. Shuning uchun ham Navoiy shoir "...bu she'r bilan o'zin hajv qilibdi", deb yozadi va baytning badiiy qimmati past ekanligini ko'rsatib beradi<sup>26</sup>.

Navoiy Mir Sayyid Hasan degan shoirning bir bayti ustida ketgan munozara haqida so'zlab, unga bu baytning ma'nosi yo'q, notekis, tuturuqsiz ekanligi aytilganda u hammani nodon-johil sanab, bu baytini Iroqqa Ya'qub Mirzo o'rdasiga yuborganini aytadi. So'z quyidagi bayt ustida ketgan edi:

---

<sup>26</sup> *Шайхзода М. Кўрсатилган китоб. 83- б.*



***“Ey zi mehri orazat gardun g’ulom,  
Yusufero kardaand Ya’qub nom”.***

Tarjimasi: Yuzing quyoshiga dunyo quldir, Yusufga Ya’qub deb ot qo’yidilar.

Navoiy o’tkir istehzo bilan bu shoir “bir bayt aytib, aqli va tab’i ne miqdor ekanini isbot qildi”, deb yozadi. “Majolis”da ijtimoiy mazmunga ega bo’lmagan, she’riyat qoidalariga to’la qilinmay yaratilgan asarlarning ijodkorlari keskin tanqid ostiga olingan. Xurramiy, Osafiy, Sog’ariy, Shihob va boshqalar shular jumlasidandir<sup>27</sup>. Navoiy badiiy ijod mahsuli yuzasidan bildirilgan fikrlarga- tanqidga e’tibor bilan qarash lozim, degan masalani o’rtaga tashlaydi. “Majolis” da tanqidga hurmat bilan qaragan san’atkorlar haqida ham, tanqidni mensimay tanqid qilishga yo’l qo’ymagan shoirlar haqida ham so’z ketadi. Abdusamad Badahshiy haqida “...masnaviygo’y va musannif kishi erdi. Bir baytida tajnis hayol qilib, qofiyasini g’alat qilib berdi, faqir ani voqif qilg’och filhol mutanabbih bo’ldi. Izhor minnatdorlig’ ham qildi...” deb yozadi va bu shoir bilan oralarida shundan so’ng do’stlik paydo bo’lganini e’tirof etadi.

Xusraviy degan shoir haqidagi ma’lumotda esa Navoiy uning o’ziga bino qo’yganligi, teztabiati bilan izohlanadigan yana bir nuqsonga e’tiborni tortadiki, u ham bo’lsa – she’rlari yuzasidan aytilishi mumkin bo’lgan tanqidiy fikrlarga yo’l qo’ymasligidir: “...faqir qoshiga ba’zi mahalda she’r keltursa erdi, burunroq andoq kalom surar erdikim, dahl qilmoq yo’li bog’lanur erdi. Zaruratan barcha she’rin tahsin qilmoq kerak erdi. ”Navoiyning Xurramiy degan shoir shahsiyati va ijodi haqidagi ma’lumotlari ham g’oyat diqqatga sazovordir. Odamgarchilikdan tamomila bexabar ,yomon siyratli (badmijoz), badfe’l bo’lgan bu shaxs tanqidni qabul qilmagan. Navoiy qayd qilishicha: “...she’r ham aytur va anda pisand ham qilmas” ekan. Tazkirada Navoiyning bu shoir ijodidan keltirgan namunalari g’oyatda muhim hisoblanadi:

***Ovozai ruhi gul to boz bar nayoyad,***

---

<sup>27</sup> *Хайитметов А.* “Мажолисун нафоис” хақида баъзи мулоҳазалар. //Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. Тошкент. 1958. №1. 55 - б

### ***Dar bo'ston zi bulbul ovozi bar nayoyad.***

Tarjimasi: Gulning yuzi (haqida) yana bir ovoza yuksalmaguncha, bo'stonda bulbuldan sado ko'tarilmaydi. Ma'lumki, bulbulni gulning shaydosi deyiladi. Shoir esa uni gul yuzi haqida yana bir ko'tariladigan ovoza kuychisi qilib tasvirlamoqda.

Shunday qilib, "Majolis un-nafois" da Navoiy o'z qalamkashlari qarshisiga adabiyot davr talabi saviyasida bo'lishligi lozim degan vazifa qo'yadi. U asarlar ham g'oyaviy, ham badiiy jihatdan yetuk va puxta, dabiylar an'analarni namunalik ravishda o'zlashtirib boyitgan, hissiy ta'sir qudratiga ega hamda yuksak estetik zavq bag'ishlay oladigan bo'lishligi zarur degan talablarni qo'ydi. Navoiy adabiyotda ma'lum bo'lgan fikrlarni takrorlovchi, o'zgalar she'rini o'ziniki qilib oluvchi soxta ijodkorlar – Mavlono Nargis, Anisiy, Xoja Musolarni ayovsiz tanqid ostiga oladi. Navoiy hokim tabaqalariga mansub shoirlarni xalqqa zulm o'tkazganligi, axloqiy qiyofasining tubanligi hamda she'rlarining ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmaganligi uchun g'azab bilan tilga olib ayovsiz fosh etadi. Boxarlik masnaviygo'y vazir Soneiyning zolimligi hamda badnafsligi uchun qatl qilinganini Navoiy zo'r qoniqlik bilan qayd qiladi: "Mavlono Sone'iy... vazir erdi. Zulm va badnafsligi jihatidan podshoh siyosatiga girdor bo'ldi va maqtul bo'ldi".

Zul o'tkazishda Sone'iydan ham o'tadigan yana bir vazir Xoja Musayyab haqida quyidagicha yozadi: "Xoja Musayyab- ondin (Sone'iydan – S.G'.) ajabroq kishi erdi". Shuningdek yuqori mansab egalari Abulbaraka va Riyoziy kabi qozilar haqidagi maqolalar ham o'ta salbiy ruhda yozilgan. Navoiy ularning faoliyatini ham qattiq qoralaydi. Navoiyning "Majolis" da hokim tabaqaga mansub shaxslar haqidagi tanqidiy qarashlari uning ijodidagi insonparvarlikning yorqin ifodalaridandir. Shoir ijtimoiy foydali faoliyatda bo'lgan davlat arboblari, nufuzli shaxslar haqida katta samimiyat bilan so'z yuritadi. Xoja Afzal, Xoja Xurd, Amir Mahmud Barlos, Sulton Ahmad Mirzolarga bag'ishlangan maqolalar fikrimizning dalili bo'la oladi.

Navoiy yettinchi majlisda temuriy shahzodalarning badiiy ijodiga ham, ularning shaxsiga ham imkon boricha haqqoniy baho berishga intiladi. Masalan, u Abobakr mirzo haqida "...chun tab'ida nazm choshnisi bor ermish" desa, Sulton Iskandar

haqida "...derlarkim, tab'I nazmg'a moyil erdi..." deydi. Abdulatif mirzoning shaxsiy sifatlari haqida: "Savdoyi mizoj va vasvasiy tab' va devonasor kishi erdi. Mundun o'zga dag'i g'arib badfe'lliklari bor erdikim, zikridin behibojlik lozim kelur. O'tar dunyo maslahati uchun donishmand va qari va podsho otasin (Ulug'bekni) o'lturdi..." deb uni qattiq qoralaydi<sup>28</sup>.

Bizga ma'lumki tazkiraning sakkizinchi majlisi Husayn Boyqaroga bag'ishlangan. Husayn Boyqaro o'z zamonasining iste'dodli shoirlaridan biri edi. Uning lirik she'rlari va naziralari badiiy jihatdan maroqli chiqqan. Navoiy "Majolis un-nafois" da do'stining she'rlari ahqida mulohaza yuritib ularga ijobiy baho beradi. Husayn Boyqaro she'riyatining g'oyaviy jihatdan cheklanganligini ta'kidlamaydi, tanqidiy munosabatda bo'lmaydi.

Navoiy hayot va undagi turli hodisalarning adabiyotda ifodalanishini qonuniy hol deb qaragan, satirik va hajviyona hodisalarga munosabat bildirib, kulgi, istehzo, xursandchilik onlariga ham ahamiyat bergan, bundan uning adabiyotning ijobiy hamda ko'tarinki ruhda bo'lishi lozim deb qaragani anglashiladi. Ayni chog'da tazkiradagi bunday ma'lumotlar o'sha davr adabiyotidagi satira, hajviya va ularning ijodkorlariga bo'lgan Navoiy munosabatini belgilash imkoniyatini beradi. Tazkirada Abulqosim Bobur zamonida sadrlik lavozimida o'tirgan va keyinchalik ham katta mavqega ega bo'lgan Muhammad Muammoiy nomi keltiriladi. Navoiy bu shaxsning o'zidan eshitgan bir naqlni maqolada hikoya qiladi. Muhammad Muammoiy amaldor ekanida Sherozdagi Xofiz Sheroziy qabri ustiga gumbaz yasattiradi. Maqbara bitgach, Bobur sharafiga ziyofat beradi. Shunda Sherozning "sho'x ta'blaridan biri" Bobur Mirzoning ko'zi tushadigan devorning bir joyiga quyidagi baytnin yozib qo'yadi:

***Agarchi jumlai avqofi shahr g'orat kard,***

***Xudosh xayr dihod onki in imorat kard.***

Tarjimasi: Agarchi butun shahar vaqflarini o'g'irlagan esada, shu binoni qurgan odamning xudo hayrini bersin.

---

<sup>28</sup> *Фаниева С. Кўрсатилган китоб. 54- б.*

Navoiy yaqin do'sti Amir Shayxim Suhayliyning Vaysiy va Sog'ariy nomli shoirlarga atab yozgan o'tkir satirik qit'asi "el orasida base shuhrat" tutganligini xabar qiladi. Nomlari zikr etilgan bu ikki shoir Abdurahmon Jomiy Makka safariga chiqmoqchi bo'lganida birga mulozamatda borishlikni izhor qilishgan. Jomiy ketar vaqtida Vaysiy eshagi yo'qligini bahona qilib, Sog'ariy esa yana qandaydir bir bahona bilan safardan qolganlar. Shunda Suhayliy quyidagi qit'ani aytgan edi:

***Vaysiyu Sog'ariy ba azmi haram,  
Gashta budand har dushon safari,  
Lek az on roh har du vo mondand,  
On yak az bexariyu in zi xari.***

Tarjmasi: Vaysiy va Sog'ariy ikkovlon muqaddas safarga bormoqchi bo'ldilar. Biroq u biri eshagi yo'qligidan, biri eshakligidan ul yo'ldan qoldilar<sup>29</sup>.

"Majolis"da o'sha davr hajvchiligining yuqoridagi kabi yorqin namunalari anchagina. Poraxo'r Xo'jand qozisini fosh qiluvchi Sayid Abdulhaqning qit'asi, hazl-mutoyibaga moyil Sayid Kozimiyning: "Xudoga shukrki, Hiri (Hirot – S.G'.) shaharining qozisi emasman – odamsifatman, eshak emasman", - ma'nosidagi hajviy bayti; Abdulbaraka degan qozining kirdikorlarini fosh etuvchi noma'lum shoirning bayti; qator-qator hajviy qaydlar - Mir Murtoz degan shoir shaxmatga shunday ishqiboz bo'lganki, ikkita o'yinchiga duch kelsa biri bilan o'ynab, agar biri ketsa, bunisi qolsin degan ma'anoda ikkinchisining etagini mahkam ushlab o'tirishligi haqida; Buxorolik shoir Kavsariyning o'z hujrasida taom pishirayotganida kimdir kelib qozon ostiga o'tin tashlab qo'ygani, shunda u tabh (ovqat pishirish) ishida madad qilmakim, sherik bo'lursen deya shirin va iliq hazil bilan hozirjavoblighi haqida; shoir Masixiyning Ka'ba safariga ketayotganida uzoq yo'l mashaqqati va shoir ahvalidagi bir holatni aks ettiruvchi g'oyat hajviy bayt (buning ham muallifi ma'lum emas), Hofiz Sharbatiyning Abulqosim Bobur Mirzo taklifi bilan Shoh yonidagi shahar muftisi sarhush Mavlonozadai Abhariyga may to'la qadah uzata turib badihona bitgan ajoyib bayti:

---

<sup>29</sup> Юнусов М. Шеърят аҳлининг буюк ҳомийси. // Шарқ юлдузи. Тошкент. 1968. №8. 215 - б

***Dar davri podshohi atobaxshi jurmnush,  
Hofiz qarobakash shud mufti payola no'sh.***

(Tarjimasi: Muruvvatli va gunohlarni yopib ketuvchi shoh davrida Hofiz may tortuvchi , mufti esa mayxo'r bo'ldi.) kabilar shular jumlasidandir.

Aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, “Majolis un-nafois” Navoiyning o'z ijodidagi va uning davridagi satira va hajviya haqida ham keng tasavvur yaratib beradi. Navoiy satira va hajviyani so'z san'atkorlari ijodidagi ilg'or jihatlar deb sanab, ularda ko'tarilgan g'oyalarning hayotiy ahamiyatini haqqoniy baholaydi. Shuningdek, navoiy shoirlarning ma'naviy qiyofasi va insoniy fazilatlarini, xulq-atvoriga ham alohida diqqat bilan qaraydi. Ulardagi soflik, mehnatsevarlik va boshqa oliyjanob xususiyatlarni esa qoralab tanqid qiladi.

Navoiy shoir ijodiga, faoliyatiga va shaxsiyatiga baho berishda ularning jamiyatga foyda keltiradigan fanlar bilan mashg'ul bo'lgan va umuman, madaniyat sohasida har tomonlama keng ma'lumotga ega bo'lgan ijodkorlarni ayniqsa yuqori baholaydi. U shoir Binoiyni ta'riflaganda: “Bag'oyat qobiliyati bor. Avval tahsilg'a mashg'ul bo'ldi, anda rushdi bor erdi... xatqa ishq paydo qildi, oz fursatda obodon bitidi. Andin so'ngra musiqiy faniga mayl ko'rguzdi, bor o'rganib, xele ishlar tasnif qilib, risola dag'i atvorda bitidi”. Navoiyning Xoja Abdullo Sadrga bag'ishlangan maqolasi ham yuqoridagi fikrimizning dalili bo'la oladi: “Xoja Abdullo Sadr - ...kichik yoshida ulum kasb qildi. Advor va musiqiy ilmida va xutut fanida Benazir bo'ldi va qonuniy ma'lum emaskim, hargez kishi andoq chalmish bo'lgan. Va podshoh xizmatida oily mansabqa sarafroz bo'ldi. Ul jumladin biri sadoratdur. Va insho fanini ham kamolga yetkurdi va o'zi yaxshi xulqluq va yaxshi suhbatlik yigitdur”. Tazkirada Navoiyning bunday olqishiga sazovor bo'lgan ijodkorlarga keng o'rin ajratilgan, mavlono Salimiy, Mir Atoulloh, Mavlono Sharbatiy, Ustod Qulmuhamad va boshqalar shunday shaxslardandir.

Navoiyning alohida husni rag'batlari “emdi paydo bo'lg'an”, “emdi arog'a kirgan”, “emdi zuhur qilg'an” yosh ijodkorlar tomonidadir. Ularning ko'pchiligi boshqa mamlakat, shaharlardan kelib Hirotda tahsil ko'rayotgan talabalaridir.

Navoiy bu yosh shoirlarning ba'zilar haqida "nazmi hanuz shuhrat tutmaydur", deb yozsa boshqalari to'g'risida "...umid ulkim, yaxshiroq aytqay", deydi. Bunday yosh iste'dodlar orasida muammo sohasida hammani hayratda qoldirgan Sayyid Abdulatif, tab'ida fikr uyg'otuvchilik ("hayolangiz") xususiyati bor Sa'd, haqiqiy zehn egasi ("zehnida tasarruf bor") Noziriy kabilarva yaxshigina qobiliyati bo'lgan madrasa talabalari (ulardan aksariyati Navoiy madrasasida o'qir edilar) Mirasadullo, Bihishtiy, Mirhusaynlar bor. Alisher Navoiy bu yosh shoirlarga homiylik qilgan. Navoiy ularning ijodiy faoliyatlarini to'g'ri yo'naltirib turganidan tashqari, moddiy ahvollaridan ham xabardor bo'lib turgan. Adabiy hayot taraqqiyotini sinchiklab kuzatib brogan Alisher Navoiyning adabiy hayot yo'liga kirib kelayotgan yosh kuchlarga alohida umid bog'lagani tasodifiy emas, albatta. "Majolis" dagi eng diqqatga sazovor lahzalardan biri shuki, unda qadimgi o'zbek tilida ijod qilgan shoirlar haqida keng ma'lumotlar bor. Navoiy siyosiy-ijtimoiy va adabiy-tanqidiy qarashlarining belgilovchi masalalaridan biri o'zbek tilidagi badiiy ijodning ravnaqi bo'lgan. U o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asari va devonlariga yozgan "Debocha" sida shoirlarni o'z ona tillarida ijod qilishga da'vat etadi. Navoiy "Majolis" da qadimiy o'zbek tilida ijod qilgan shoirlarni ko'rsatib o'tadi. Turkiyo'y shoirlar tazkirada kamchilikni tashkil etadi. 459 she'r ijodkoridan faqat 39 shoir turkigo'y bo'lib, shular orasida "zullisonayn"lari ham bo'lgan, ko'pchiligi esa (12 shoir) shoh, shahzoda va mavqeli shaxslar edi. Buning sababini Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida juda yaxshi izohlab bergan. Navoiy o'zbek adabiyotining ravnaqini ta'minlash uchun shu xalq orasidan chiqqan san'atkorlar o'z ona tillari xususiyatlari, uning she'riyat uchun boy imkoniyatlarini o'rganishlari, bu yo'lda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklardan cho'chimasliklarini talab qiladi.

Buyuk so'z san'atkori Alisher Navoiy jonli so'z ijrochilari san'atiga hamma vaqt chuqur ehtirom va zo'r e'tibor bilan qaragan olimdir. Biz so'z yuritayotgan "Majolis un-nafois" nomli tazkirasi buning yorqin dalili bo'la oladi. Shuni aytish kifoyaki, aslida shoirlar mahorati va iqtidoriga bag'ishlangan bu tazkirada 50 kishidan ko'proq jonli so'z ijrochilari ham hurmat bilan tilga olinadi. Bugina emas,

Alisher Navoiy ularning san'ati va mahoratiga qarab bir necha toifaga, agar ta'bir joiz bo'lsa, ijrochilik janrlariga bo'lib chiqadi. Mohir so'z zargari Alisher har har bir ijrochining mahoratiga qisqa-qisqa, lekin mantiqan kuchli, aniq ta'rif beradi. Butun asar bo'yicha esa u so'z ijrochilari faoliyatini ichki bir muntazamlikda – oddiydan murakkablikka, tor doiradan professional va keng doira tomon yoritib boradi. Navoiy qalamga olgan janr va ularning ba'zi bir namoyondalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Nadimlar yoki boshqacha qilib aytganda xush ta'b, hozirjavob suhbatdoshlar, o'z so'z boyliklari, chechanlik va o'tkir tilliklari bilan mashxur bo'lgan kishilar. Bu toifadagi san'atkorlar mushoira va majlislarning bezagi bo'lib, hamisha o'z tinglovchilarini qoyil qoldirganlar. Vosifiyning "Badoye ul-vaqoye" nomli risolasida ham bunday toifadagi so'z ustalari haqida g'oyat dilkash va taajjublanarli hikoyatlar keltiriladi. Ayniqsa, Vosifiy risolasida tilga olingan Mavlono Abdulvosi Munshiy ismli nadimning mahorati haqidagi ma'lumotlar kishini hangu mang qoldiradi. Darhaqiqat, Munshiy tarixiy shaxs va darhaqiqat so'z san'atining zabardast namoyondasi bo'lib, uning mahorati va san'atiga Navoiy ham o'z tazkirasida tegishli o'rin beradi. Bundan tashqari Navoiy o'z asarida nadimlik san'ati namoyondalaridan Mavlono Muhamma Olim, Said G'iyosiddin, Xoja Sulton Muhammad, Xoja Xond kabi qator kishilar nomini tilga oladi. Shuningdek, ularga qisqa-qisqa ta'rif berar ekan. Mavlono Muhammad Olimni "Bag'oyat dilbar, sho'x va xiyr kishi erdi, bahsda ko'p gustaxona so'zlar va javoblar aytur erdi" deb ta'riflasa, Said G'iyosiddinni "Mazoh va mutoyiba mijozig'a g'olibdur" deydi. Shuning uchun ham uni goh "Sayid shercha" deb atasalar, goh maymung'a o'xshatgan ekanlar. Bu esa Sayid G'iyosiddinning xalq masxarabozlik teatri namoyondasi ekanligidan ham darak berib turibdi. Nadimlar shu qadar ta'sir etish qudratiga ega bo'lganlarki, Navoiy aytishicha Mavlono Abdulvosi Munshiy kabi so'z ustalarining gapidan qochib ham qutila olmaganlar. Majlis ahli baribir ularni holi joniga qo'ymasdan, "majbur" qilib o'tqizib yana gapga solganlar. Darvoqe ana shu ma'lumotni Vosifiy ham tasdiqlaydi va isboti uchun juda sho'x va dilkash bitta hikoya keltiradi. Xullas, Alisher Navoiy

tazkirasida keng o'rin berilgan va boshqa tarixchi, olimlar risolalarida ham batafsil tilga olingan nadimlar, tor doiradagi badiiy so'z san'ati ustalari bo'lib, manbalar va ayniqsa Navoiy bergan ma'lumotlarga ko'ra so'z san'atining professional namoyondalari bo'lganlar.

2. Badixago'ylik- ijrochilik san'atini uzil-kesil e'tirof etuvchi bosqichdir. Bu san'at mushoira va majlis-anjumanlarda yozib o'tirmasdan darhol yoddan she'r tayyorlab, o'qish , eksprompt tarzda ijod qilish demakdir. Shunday ekan, sohibi suhandondan yuksak shoirona kamolot, hozirjavoblik, chuqur bilim va mahorat bilan birga, barkamol ijrochilik iste'dodi ham talab etilishi turgan gap. Chunki badixago'ylik eng avval bahs – munozara va ijodiy tortishuvning natijasi bo'lib, eng yaxshi ma'noda "Kim kimni yengadi" tamoyiliga asoslanadi. Demak, badiha aytuvchi yo yengishi, yo majlis ahli oldida mulzam bo'lishi kerak. Ana shuning o'ziyoq badihago'ydan katta ijrochilik mahoratiga ega bo'lishni talab qilgani shubhasiz. Chunki yaxshi she'r to'qib , uni yomon talqin etish , ifodasiz, badiiy bo'sh holda o'qib berib, yengilish ham mumkin. Aksincha ham bo'ladi. Ayrim paytlar o'rtacha saviyadagi asarlarni chiroyli, badiiy barkamol ijro etib, raqibning yengish ehtimoli ham mustasno emas. Chunki kishining ovozi, nutqi, qo'l va yuz ishorati, intonatsiyasi shu qadar boy va sermazmunki, bitta o'rinli qarashning o'zi yoki bitta o'rinli intonatsion rangdorlik bir sahifalik matnni ifodalashi mumkin. Shuning uchun ham badihago'ylik san'ati badiiy so'z ijrochiligining professional ko'rinishi tarzida fikr yuritish asosini beradi va Alisher Navoiy badihago'ylikning ustalari tarzida qalamga olgan Mavlono Sulaymoniy, Mavlono Shahidiy , Mavlono Hovariylarga xos ijodiy xususiyatlarni o'rganish bugungi kundagi badiiy so'z ijrochilari uchun ham manfaatdan holi emas.

3. Guyandalar – professional so'z ijrochilari bo'lib, ular hikoya va qissalarni ijro etish bilan shug'ullanganlar. Guyandalik san'ati namoyondalari asosan keng xalq ommasi orasida tarqalgan bo'lib, tazkira ma'lumotlariga qaraganda to'y hashamlarda ishtirok etganlar. Aftidan ularga ularga cholg'uchilar ham jo'r bo'lganlar. Guyandalik san'atining keng ta'sir mavqeyidan darak beruvchi dalillardan yana biri shuki,



podshox Sulton Abu Said Mirzoning tarixchisi Mavlono Abdusamad Badahshiy go'yandalar mahorati va ijrochiligiga bag'ishlab maxsus masnaviy yozadi. Bu esa mutaxassislik namoyondasi uchun juda sharaflı taqdirlashdir. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" da voizlik san'ati, ya'ni notiqlik san'atiga juda keng o'rin beradi. Olim o'z davrining voizlariga xos ijodiy yondashuvlar, ularning tinglovchilari, mahorati va bilim doirasi haqida batafsil fikr yuritadi. Tazkira ma'lumotlariga tayanib, XV asr voizlik san'ati haqida bemalol fikr yuritish, voizlik san'atining mavzu doirasi, ta'sir qudrati hamda zabardast namoyondalarini aniqlab olish mumkin. Chunki Navoiy qalamiga mansub bo'lgan sermazmun ma'lumotlarning o'ziyoq juda inobatli, olimona ko'rinishda berilgan bo'lishiga qaramasdan, shularni yana bir karra isbot etuvchi ancha-muncha risola va boshqa turli-tuman manbalar ham bor. Shuni aytish kifoyaki, badiiy so'z san'ati ijrochilari tazkirada o'ntadan ortiq ijrochilik janri atrofida birlashtirilgan va har bir janr, har bir ijrochi haqida muxtasar, lekin sermazmun, muntazam ma'lumot ayniqsa tazkirada yoritilgan qissago'ylik, masalgo'ylik, muammogo'ylik, maddohlik, qasidaxonlik kabi ijrochilik janrlari, yuqori o'rinlarda ta'kidlab o'tkanimizdek savodsiz, omiy shoirlar hajvgo'y shoirlar va harbiy sarkardalar so'z san'atiga oid sahifalar diqqatga va o'rganishga loyiqdir<sup>30</sup>. Tazkirada Navoiy ilgari surgan so'z ijrochiligi, ayrim mavzu va tuyg'uviy asoslar hozirgi kun ijrochiligi uchun ham juda zarur va aktualdir. Shu sababli Alisher Navoiy merosidagi badiiy so'z san'ati ijrochiligi va namoyondalariga oid ma'lumotlarni o'rganish, faqatgina navoiyshunoslik va o'zbek madaniyati tarixiga qo'shilgan xissa emas, balki hozirgi kundagi badiiy so'z san'ati ijrochiligi ravnaqiga qo'shilgan arzirli hissa bo'lishi tabiiydir.

II bob bo'yicha olib brogan izlanishlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik ya'ni, "Majolis un-nafois"da Navoiy har bir adabiy tur va janrda ijod etib, ma'lum muvaffaqiyatga erishgan shoirlar haqida anchagina qiziqarli ma'lumotlar beradi. Navoiy o'z ijodida epik janrga katta e'tibor bergan. "Majolis un-nafois"da

---

<sup>30</sup> Иномхўжаев С. Алишер Навоий ва бадий сўз санъати. // Ўзбекистон маданияти. Тошкент. 1966. №37. 267 - 6

ham, shu janrda qalam tebratgan shoirlarni ko'rsatib o'tadi. Ko'pincha bir-ikki jumladagina shoirga va uning ijodiga tanqidiy qiymat beriladi, shoir kimga va nimaga tatabbu' etganligi, u zamonda mavjud bo'lgan qaysi adabiy navga (g'azal, qasida, muammo va boshqalar) ko'proq qiziqqanligi va undagi mahorati qayd etiladi. Shoirdan bir-ikki bayt, yo biron qit'a, ruboiy, muammoni o'rnak tariqida keltirish bilan ta'rif tugallanadi. Tazkira ma'lumotlari bu davrda g'azal janri keng tarqalganligidan dalolat beradi. Qit'a, ruboiy, tuyuq kabi lirik janrlar haqida ham tazkirada ma'lumot beriladi. Muammo va maqlubi mustaviy kabi poetik turlarni shartli ravishdagina adabiyotga kiritish mumkin. Zeroki, ularda shakl elementlari mavjud. Lekin bu turlarning tarqqiy etganligining o'zi o'sha davrda badiiy mahoratga, shaklga qanday e'tibor berilganligi va u qanchalik yuksak darajaga yetkazilganligidan dalolat beradi. Ba'zi shoirlar bu turlarda o'zlarining badiiy mahoratlarini takomillashtirish va o'tkirlash maqsadida ijod etganlar – mashq qilganlar. Demak aytish mumkinki, bu turlardan yuksak maqsad yo'lida foydalanganlar. Yana tazkirada ta'rix janriga oid bir qator misollarni ham ko'rishimiz mumkin. Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida badiiy san'atlar keng qo'llanilgan. Masalan: sa'j, tarse', tajohil ul-orif, talmeh, tardi aks va h.k.

Alisher Navoiy buyuk olim sifatida o'z tazkirasida talay shoirlar ijodini tahlil qilish bilan bir qatorda, umuman adabiyot nazariyasi, xususan she'riyat muammolarini o'rta tashlaydi va hal qilib o'tadi. Navoiy o'sha davr madaniy hayotining asosiy muammolaridan hisoblangan shakl va mazmun masalalarini diqqat markaziga qo'yadi. U badiiy asarlarning shakli va mazmuni haqidagi ilg'or fikrlarni himoya qiladi, shaklning mazmundan ustun qo'yilishiga qarshi chiqadi. Navoiy "Majolis un-nafois"da badiiy asarlarni tahlil qilish vazifasini o'z oldiga qo'ymaydi. Zotan, tazkirachilik an'anasi buni talab ham qilmas edi. Lekin shunga qaramay "Majolis un-nafois" dagi muhim adabiy-tanqidiy mulohazalar XV asr adabiyotini, uning bir qator namoyondalari ijodini yoritishga yordam qiladi. Tazkira muallifi ko'pgina shoirlarning badiiy adabiyotda tutgan o'rnini ko'rsatishga, ularning badiiy ijodiyotini baholashga va asarlari uchun xos bo'lgan xususiyatlarini yoritishga

intiladi. Biroq u ba'zan ayrim yozuvchilar ijodining ma'lum bir tomonini yoki ma'lum bir asarini, hatto ma'lum bir parchasini ko'zda tutib fikr yuritadi. Ayrim o'rinlarda esa ba'zan yozuvchilar haqida ma'lumot beradiyu lekin ularning ijodi haqida fikr yuritmaydi yoki uchinchi bir kishining mulohazasini bayon etish bilan kifoyalanadi, chunki adabiyot ahllari haqida haqqoniy fikr yuritish shuni taqozo qilar edi. Navoiy she'rning g'oyaviy mazmuniga ham, badiiyligiga ham katta e'tibor beradi. U she'rdagi juz'iy nuqsonlarni ham tanqid qiladi. Navoiy hayot va undagi turli hodisalarning adabiyotda ifodalanishini qonuniy hol deb qaragan, satirik va hajviyona hodisalarga munosabat bildirib, kulgi, istehzo, xursandchilik onlariga ham ahamiyat bergan, bundan uning adabiyotning ijobiy hamda ko'tarinki ruhda bo'lishi lozim deb qaragani anglashiladi. Ayni chog'da tazkiradagi bunday ma'lumotlar o'sha davr adabiyotidagi satira, hajviya va ularning ijodkorlariga bo'lgan Navoiy munosabatini belgilash imkoniyatini beradi. Navoiy shoir ijodiga, faoliyatiga va shaxsiyatiga baho berishda ularning jamiyatga foyda keltiradigan fanlar bilan mashg'ul bo'lgan va umuman, madaniyat sohasida har tomonlama keng ma'lumotga ega bo'lgan ijodkorlarni ayniqsa yuqori baholaydi. Navoiyning alohida husni rag'batlari "emdi paydo bo'lg'an", "emdi arog'a kirgan", "emdi zuhur qilg'an" yosh ijodkorlar tomonidadir. Ularning ko'pchiligi boshqa mamlakat, shaharlardan kelib Hirotida tahsil ko'rayotgan talabalaridir. Navoiy bu yosh shoirlarning ba'zilar haqida "nazmi hanuz shuhrat tutmaydur", deb yozsa boshqalari to'g'risida "...umid ulkim, yaxshiroq aytqay" deydi. "Majolis"dagi eng diqqatga sazovor lahzalardan biri shuki, unda eski o'zbek tilida ijod qilgan shoirlar haqida keng ma'lumotlar bor. Tazkirada Navoiy badiiy so'z san'ati namoyondalariga chuqur ehtirom ko'rsatib, ularni nadimlar, badihago'ylar, guyandalar yoki voizlar deb ataydi hamda ular haqida, ijrochilik mahorati haqida bir qator qiziqarli ma'lumotlarni keltirib o'tadi. "Majolis un-nafois" tazkirasi majlislarining badiiy talqinida yuqoridagi ma'lumotlarga ega bo'ldik.

## XULOSA

Tengi yo'q ijodkor, she'riyat ahlining buyuk homiysi Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasi o'zbek tazkirachiligining asosi bo'lib, hozirgi davrgacha bu asar o'z qadr-qimmatini yo'qotganicha yo'q. Zero zamondoshlarigagina emas, ko'proq kelajak avlodlarga yetkazilishi ko'zda tutilgan qimmatli va saboq bo'larli gaplar shoirning ushbu kitobida aytilgan. Humomiddin o'g'li Xondamirning fasih tili bilan aytganda: "Oliy hazrat nasr fanini o'zlashtirishda taraqqiyning eng yuqori pog'onasiga va avjning eng yuksak darajasiga ko'tarilgan edi...Oliy hazratning nasriy asarlaridan biri-turkiy tilda yozilgan "Majolis un-nafois" dir. Bu aziz kitob hazrati xoqon Shohruh Mirzo podshohligi davridan boshlab, shu zamonga qadar yer yuzini ravshan vujudlari bilan bezagan va bezab turgan olim va shoirlardan ko'plarining ba'zi sifatlaridan va ahvollaridan bayon qiladi". "Majolis un-nafois" e'tibor bilan varaqlab chiqilar ekan, undagi sakkiz badiiy majlisning har birida o'quvchi ko'z o'ngida turli-tuman qismatlar, xilma-xil xarakterlar va chegaralanmagan imkoniyatga ega bo'lgan iste'dodlar olami paydo bo'ladi. Davrning fazlu hunar egalariga bemuruvvatligi, "doim afsunsozu g'addor" ekani juda ko'p misollar orqali isbotlanadi. Garchi asarlarda shoirlar, she'r havaskorlari va ilm-fan namoyondalaridan 459 kishining ijodi haqida mulohaza yuritilsada, undagi bosh qahramon – muallifning o'zi va bosh masala – she'ru shoirning taqdiridir. Navoiy she'r va shoirning jamiyatda, hayotda tutgan o'rni masalasiga ko'p ahamiyat beradi. Navoiy ko'pchilik asarlarida qissaxon, hikoyachi sifatida maydonga chiqadi. Agar biz muallifning asarlariga yozilgan debochalardagi, dostonlardagi, tabarruk maslakdoshlariga bag'ishlangan risolalardagi tarjimayi holiga doir ayrim ma'lumotlarni hisobga olmasak, uning ko'p qirrali shaxsiyati, eng yaxshi xislatlarga boy ma'naviy qiyofasi hech qayerda "Majolis un-nafois" dagi singari har tomonlama mukammal gavdalanmaydi, desak xato bo'lmaydi. Salaflari, keksa zamondoshlari, tengdoshlari va "yaxshi ta'blik yigitlar" ijodini baholash jarayonida adabiyotshunos, tanqidchi, maslahatgo'y, mehribon ustoz, shoirlarga moddiy va ma'naviy himoyachi,

nozik didli san'atkor, adabiyot maydonining pokizaligi yo'lida jonbozlik ko'rsatgan nazm ahlining yetakchisi, charog'boni sifatida butun salobati ila ko'rinadi.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasi majlislarini tarkibiy tuzilish hamda badiiy jihatdan o'rganish jarayoni quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Navoiyning tazkirasigacha bir qancha tazkiralar yaratilgan: "Lubob ul-albob", "Tazkirat ush-shuaro", "Bahoriston" ning 7-ravzasi va boshqalar. Ammo ular asosan fors-tojik tilida bo'lganligi, faqatgina ijodkorlarning hayotiga oid ma'lumotlarga berilganligi sababli o'z ona tilimizdagi, o'zbek tilidagi Navoiyning tazkirasiga ehtiyoj juda katta bo'lgan.

2. "Majolis un-nafois" tazkirachilikda yangi va juda qimmatli asar sifatida vujudga keldi hamda o'zbek tazkirachiligiga asos bo'ldi.

3. Bu tazkiraning ko'zga tashlanadigan birinchi jihati shundaki, Navoiy unga o'zi yashab turgan davrdagi ma'lum shoirlar va shoir bo'lishga harakat qilgan qalam ahllarini kiritishni asosiy maqsad qilib qo'ygan.

4. Tazkira boshqa xalqlar adabiyotlaridagi tazkirachilikning bundan keyingi taraqqiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatdi, "Majolis" dan keyin paydo bo'lgan tazkiralarning mualliflari asarlarini asosan o'z davrlaridan kelib chiqib tuza boshladilar.

5. Navoiy tazkirasining eng muhim xususiyatlaridan yana biri u asosan o'zbek va tojik adabiyotlari tarixiga doir asar, bunda biz har bir shoirning hayoti va ijodiga tegishli oz-oz bo'lsa ham, lekin muhim ma'lumotlarni olamiz. Mana shu jihatlari bilan "Majolis un-nafois" yozilganidan oz fursat o'tmay Sharq mamlakatlarining shoirlari, tarixchilari, olimlari diqqatini ko'p marta o'ziga jalb eta boshlagan edi. XVI asrning o'zida "Majolis un-nafois" ning fors tiliga 5 marta tarjima qilinganligi Movaraunnahr, Eron va Turkiyada tazkiraga zo'r qiziqish bilan qaralganidan dalolat beradi.

6. XVI asrning ohiri va XVII asrning boshida o'tgan ozarbayjonlik adabiyotshunos Sodiqbek kitobdor "Majolis un-nafois"dan ilhomlanib va foydalanib Navoiy ona tilida - o'zbek tilida "Tazkirai majmaul-havos"ni tuzdi. O'zbek

tazkirachiligining to'ng'ich asari bo'lgan "Majolis un- nafa'is" o'zbek tilida bir qator tazkira yoki majmua va bayozlarning vujudga kelishiga yo'l ochdi va bir namuna bo'lib xizmat qildi.

7. "Majolis un- nafa'is" da Navoiy har bir adabiy tur va unda ijod etib, ma'lum muvaffaqiyatga erishgan shoirlar haqida anchagina qiziqarli ma'lumotlar beradi. Navoiy o'z ijodida epik janrga katta e'tibor bergan.

8. Ko'pincha bir-ikki jumladagina shoirga va uning ijodiga tanqidiy qiymat beriladi, shoir kimga va nimaga tatabbu' etganligi, u zamonda mavjud bo'lgan qaysi adabiy navga (g'azal, qasida, muammo va boshqalar) ko'proq qiziqqanligi va undagi mahorati qayd etiladi. Shoirdan bir-ikki bayt, yo biron qit'a, ruboiy, muammoni o'rnak tariqida keltirish bilan ta'rif tugallanadi. Tazkira ma'lumotlariga ko'ra bu davrda g'azal janri keng tarqalganligidan dalolat beradi.

9. Tazkirada mummo, ta'rix, masnaviy, qasida, g'azal, ruboiy kabi janrlar o'rin olgan. Bularni biz tazkiradagi misollar orqali ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Boshqa she'riyat turlaridan satira va yumor (Navoiy bu janrni zarofat, hajv, mutoyiba, hazil va mazoh deb ataydi) janrida Olim Said, Abdullo Astrobodiy, Jununiy, Mazhar, Sayyid G'iyosiddin, Shayhim Suhayliy kabilar qalam tebratganlar. Qasidanavislikda shoirlardan Ismatullo, Sohib Balhiy, Bobo Savdoiy, Ishqiy, Orifiylar, proza janrida esa (asosan tarixiy asarlar) Abdulvose', Mirhond, Xondamir va boshqalar ijod qilganlar. Qit'a, ruboiy, tuyuq kabi lirik janrlar haqida ham tazkirada ma'lumot beriladi. Muammo va maqlubi mustaviy kabi poetik turlarni shartli ravishdagina adabiyotga kiritish mumkin. Zeroki, ularda shakl elementlari mavjud. Lekin bu turlarning tarqqiy etganligining o'zi o'sha davrda badiiy mahoratga, shaklga qanday e'tibor berilganligi va u qanchalik yuksak darajaga yetkazilganligidan dalolat beradi. Ba'zi shoirlar bu turlarda o'zlarining badiiy mahoratlarini takomillashtirish va o'tkirlash maqsadida ijod etganlar - mashq qilganlar. Demak aytish mumkinki, bu turlardan yuksak maqsad yo'lida foydalanganlar.

10. Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida badiiy san’atlarga doir shoirlar ijodidan bir qator misollar keltirilgan : sa’j, tarse’, tajohil ul-orif, talmeh, tardi aks va h.k.

11. Alisher Navoiy buyuk olim sifatida o’z tazkirasida talay shoirlar ijodini tahlil qilish bilan bir qatorda, umuman adabiyot nazariyasi, xususan she’riyat muammolarini o’rtaga tashlaydi va hal qilib o’tadi. Navoiy o’sha davr madaniy hayotining asosiy muammolaridan hisoblangan shakl va mazmun masalalarini diqqat markaziga qo’yadi. U badiiy asarlarning shakli va mazmuni haqidagi ilg’or fikrlarni himoya qiladi, shaklning mazmundan ustun qo’yilishiga qarshi chiqadi.

12. Tazkirada Navoiy badiiy so’z san’ati namoyondalariga chuqur ehtirom ko’rsatib, ularni nadimlar, badihago’ylar, guyandalar yoki voizlar deb ataydi hamda ular haqida, ijrochilik mahorati haqida bir qator qiziqarli ma’lumotlarni keltirib o’tadi.

13. Navoiy tazkirasining qimmatli tomonlaridan yana biri uning o’sha davr adabiy mahsulotidan boy namunlarni o’z ichiga olganligidir. “Majolis” ga kirgan shoirlarning aksariyatining asarlari bizgacha yetib kelmagan bo’lib, ularning o’zlari va ijodlari haqida faqat tazkira bergan ma’lumotlargagina egamiz.

14. Tadqiqotimiz davomida tazkiraning ikki tahriri haqidagi g’oyat qiziqarli ma’lumotlarga duch keldik. Uning birinchi tahriri 1948- yilda, ikkinchisi esa 1966, 1997 hamda 2011 yillarda chop etilgan Navoiy asarlarining to’plamlarida keltirilgan. Birinchi tahrirda shoirlar soni 345 ta, ikkinchi tahrirda esa 459 ta deb ko’rsatilgan. Asarning ikki tahriri muqoyasa qilinganda, Navoiyning shoirlar ijodi, adabiy jarayonga, yosh iste’dodlarga yangicha munosabati namoyon bo’ladi.

Bitiruv malakaviy ishimizga umumiy xulosa qiladigan bo’lsak, she’riyat mulkining sultoni, buyuk adabiyot namoyondasi ham tanqidchisi bobomiz Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari o’zbek tazkirachiligining asosi hisoblanadi. Unda keltirilgan ma’lumotlar har bir o’zbek kitobxoni, Navoiyni sevib mutolaa qiluvchilar uchun juda ham foydali manba bo’lib xizmat qiladi shubhasiz. Ushbu

asarni qancha o'qib, o'rgansak , maqsadli tadqiqotlar olib borsak Navoiy merosini o'rganishdagi savobli ishlarga oz bo'lsada o'z hissamizni qo'shgan bo'lar edik.



# Foydalanilgan adabiyotlar:

## O'zbek tilida

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.T.: 2008.
2. А. Навоий Асарлар, 15 томлик. “Мажолис ун-нафоис” 12 том Тошкент -20
3. Alisher Navoiy. Asarlar 10 jildlik. 9 jild. Toshkent. 2011.
4. Абдуғафуров А. Навоий сатираси. Тошкент-1966.
5. Иномхўжаев С. Алишер Навоий ва бадиий сўз санъати //Ўзбекистон маданияти. Тошкент. 1966. №37.
6. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи, Тошкент-1976.
7. Ойбек.”Навоийнинг “Мажолисун нафоис” асари хақида” Т.13. Адабий танқидий маколалар. Т-1979.
8. Рустамов А. “Навоийнинг бадиий маҳорати”, Т; 1979
9. Саримсоқов Б. “Ўзбек адабиётида сажъ”, Т; 1978
10. Хайитметов А. «Мажолисун-нафоис»нинг ноёб бир нашри хақида//Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент. Фан,2004,-№2.
11. Хайитметов А. “Мажолисун нафоис” хақида баъзи мулоҳазалар. //Ўзбек тили ва адабиёти масалалари// Т ; 1958 №1
12. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy- tanqidiy qarashlari.// O'zbekiston madaniyati Т. 1959
13. Шайхзода М. Навоийнинг фалсафий қарашлари ва поэтик маҳорати хақида. Т.1978,
14. Юнусов М. “Шеърят ахлининг буюк хомийси” , //Шарқ юлдузи// Тошкент – 1968 №8
15. Ўзбек адабиёти тарихи. Муаллифлар гуруҳи. 5 томлик. 2- том. Тошкент. 1977. 357-373 б
16. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”асарига тайёрлаган илмий-танқидий матн. Т,1966

17. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”нинг икки таҳрири //Халқ сўзи. Тошкент. 2013. № 28.
18. Ғаниева С. Шоира Мехри //Ўзбекистон маданияти// 1960, 9-май сони
19. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис” ҳақида сўнгсўз/ Алишер Навоий. Асарлар, 15 томлик. 12 том, 211-214 б
20. Ғаниева С. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” тазкираси ва туркман адабий ҳаёти // Совет адабиёти, Ашхабад. 1987, № 6
21. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”га изох ва таржималар. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 13 том. Тошкент -1997
22. Ғаниева С. Учинчи таржима: (“Мажолис ун-нафоис”нинг форсча таржимаси”) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати . 1998 , 6 – февраль
23. Ғаниева С. Нусхаи “Мажолис ун-нафоис” аз музеи Британия // Овози тожик. 1998, 30-май
24. Ғаниева С. Алишер Навоий ва ижодкор темурий шахзодалар // Навоийнинг ижод олами (Навоий 560 йиллигига) . Т – 2001
25. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”нинг форсий таржималари” // Алишер Навоий ва форс-тожик адабиёти конференцияси материаллари. 2002, 30- январь
26. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис” ва “Замима” тазкиралар. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2003, №1,2
27. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”нинг Туркия нашри. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2006, 3-март
28. Ғаниева С. “Амир Темур Навоий нигоҳида” //Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2009, 10-май
29. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис” анъаналари форсий ва туркийзабон тазкираларда. // Эрон-афғон филологиясининг долзарб муаммолари (илмий тўплам) Т- 2009.
30. Ғаниева С. Навоий ва тазкирачилик анъаналари.// Халқаро анжуман тезислари. Туркия, Навшаҳр. 2010, май.

31. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис” хақида янги маълумот. // “Буюк ва муқаддасан, мустақил ватан” (тўплам). Т-2011.
32. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”дан // Ўзбек адабиёти, 4 томлик. 2-том. Т-1959.
33. Ғаниева С. Алишер Навоий “Мажолис ун-нафоис”: илмий-танқидий матн. Т-1961.
34. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”нинг форсий таржималарида баъзи бир иловалар хақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1964, №2
35. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”// Илмий-танқидий матндан 8-мажлис. Кобул – 1967.
36. Ғаниева С. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” тазкираси ва самарқандлик шоирлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1972, №5
37. Ғаниева С. Яна Гадоийнинг қасидаси ва “Мажолис ун-нафоис”нинг ёзилиш тарихи. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1972, №1
38. Ғаниева С. Алишер Навоий. “Мажолис ун-нафоис” // изох ва таржима, сўнгсўз муаллифи // Алишер Навоий. Асарлар, 15 томлик. 12-том. Т-1966.
39. *G'aniyeva S.* Oshiqmiz jahonni o'rtovchi. “Kitob dunyosi” gazetasi. 2012. 5- oktabr.
40. *G'aniyeva S.* Gar dilbaru dilhoh esang. “Kitob dunyosi” gazetasi. 2012 yil, 1- noyabr.
41. *G'aniyeva S.* Fazl gavharining koni .“Kitob dunyosi” gazetasi. 2012 yil, 30- noyabr.
42. *G'aniyeva S.* //Fozil va hunarmandlarning tab'i nazmi. “Kitob dunyosi” gazetasi. 2013 yil. 9- yanvar. 1- son.

## Chet tilida

43. Боровков А.К “Маджалис ан-нафаис” (собрание редкосных. Отделение литературы и языка.1927.Том 6
44. Болдырев А.Н. Персидские переводы «Маджалис ан-Нафаис» Навои // Учёные записки ЛГУ. — Л., 1952.
45. Хайитметов А. Творческий метод Навои. — Ташкент, 1965.

46. Каюмов А. П. Алишер Навои // История всемирной литературы: В 9 томах. Т. 3. М.: Наука, 1985. С. 576—582.
47. Бертельс Е.Э. Навои. Опыт творческой биографии М.-Л.: Изд. АН СССР, 1948.
48. Навои Алишер. Маджалис ан-нафаис/ Алишер Навои. – Тегран, 1333 (1954).
49. Ali-sir Nevayi. Mecalisu'n-nefayis. I – Giris ve Metin. Hazirlayan Prof.Dr.Kemal Eraslan, Ankara-2001
50. Ali-sir Nevayi. Mecalisu'n-nefayis. II – Ceviri ve notlar. Hazirlayan Prof.Dr.Kemal Eraslan, Ankara-2001

## **Internet saytlari:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
3. [www.google.uz](http://www.google.uz)
4. [www.google.ru](http://www.google.ru)
5. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
6. [www.dic.academic.ru](http://www.dic.academic.ru)
7. [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)
8. [www.turklib.com](http://www.turklib.com)
9. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz)
10. [www.yandex.uz](http://www.yandex.uz)